O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

“Til - millat ko’zgusi”

mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya to’plami



18 oktabr 2024 yil

“Til – millat ko‘zgusi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

18-oktabr 2024-yil

Toshkent

“Til – millat ko‘zgusi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami – T.: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024. – 140 b.

Tahrirchilar:

N.D. Shirinova	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Tillarni o‘rganish” kafedrasi dotsenti
N.D. Shirinova	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Tillarni o‘rganish” kafedrasi dotsenti
G.K.Darvishova	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Tillarni o‘rganish” kafedrasi dotsenti

Kirish so‘zi

Assalomu alaykum, universitet jamoasi, aziz mehmonlar! Bugungi anjumanimizga xush kelibsizlar! Hammamizga ma’lumki, o‘zbek tili o‘zbek xalqining ma’naviy mulkidir. Shu munosabat bilan 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan tarixiy sanadir.

Til – inson madaniyatining ifodasidir. Darhaqiqat, har bir millatning o‘zligi uning tili va adabiyotida namoyon bo‘ladi. Til umr bo‘yi o‘rganilayotgan fan, sayqal bergan sari ochilib, yashnaydigan san’at durdonasidir. Til aloqa vositasi ekan, so‘z insonning kamolini, ilm va fazilatini o‘lchab ko‘rsatadigan tarozidir. Jahonda 6000 dan ortiq til bo‘lib, har bir millat va elat uchun eng suyuklisi o‘z ona tilidir. Biz uchun ham o‘z tilimiz g‘ururimiz va sha’nimizdir.

Til – davlat timsoli, mulki, ruhi, millatning madaniy va ma’naviy boyligi, xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir.
“O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida” 2020-yil 10-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 1-moddasi bilan 21-oktabr sanasi **O‘zbek tili bayrami kuni** etib belgilandi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga **35 yil** to‘lishi va mazkur sana “O‘zbek tili bayrami” sifatida nishonlanishi munosabati bilan butun respublika miqyosida qator madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Tilimizni e’zozlash, uning davlat tili sifatidagi maqomi, jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash hamisha dolzarb ma’naviy burchimiz bo‘lib qolishiga e’tibor qaratildi.

O‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish uchun uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga kiritishda o‘z hissamizni qo‘shishimiz zarurligi hamda har birimizdan tilimizga chuqur hurmat bilan yondashishni talab etishi ta’kidlandi.

Xalqning, millatning mavjudligi, avvalo, uning o‘z tiliga egaligi bilan belgilanadi. 1989-yil 21-oktabrda “Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilinib, o‘zbek tilining huquqiy maqomi mustahkamlandi.

Ona tili – millat tafakkurining bebaho xazinasi, ulkan boyligi sifatida ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demakdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, “O‘zbek tili o‘zbek xalqining ma’naviy mulkidir” deya ta’kidlanishi jamoatchilikning g‘ururiga g‘urur qo‘shdi. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil Davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Xalqimiz tafakkurining tiniq ko‘zgusi bo‘lgan til-bu bebaho xazinani asrab-avaylash va rivojlantirish bugungi kundagi eng sharafli vazifalarimizdan biridir” .

Sizlarni yana bir bor O‘zbek tili bayrami bilan samimiy qutlab, barchangizga mustahkam salomatlik, oilangizga qut-baraka, tinchlik va omonlik tilayman.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, polkovnik, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yuridik fanlari doktori, professor M.X.Rustambayev

DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF MILITARY STUDENTS

Shirinova Nargiza,
Public Safety University of the Republic of Uzbekistan

The article introduces the methods of developing communicative competence of military students at the English lessons. Communication plays a great role in teaching foreign languages. So communicative competence is to be contributed for a great achievement in teaching process. It can increase the effectiveness of learning the second language. Furthermore, it is actually the skill which non-native speaker can feel the language being a successful communicator.

In the article were given interesting techniques of developing communicative competence of military students. Furthermore, it was indicated the importance of techniques in the process of developing communicative competence and worked out the exercises directed to the military sphere. Worked out techniques can serve for development of the communicative competence of military students and their fluent speech. Communication is the most important process during the teaching process. There should be more than just presenting new grammar rules or words[2]. Being busy whole the lesson with the translation of words and teaching grammar rules are traditional ways of teaching and makes the students lazy and bored. The process of teaching should be interesting, by this way we can increase student`s interest to the subject. Motivation is the most important in increasing student`s interest to the subject. Teacher should do something interesting which can make motivated the cadets. So, to motivate them teacher needs something new and interesting about their sphere that can stimulate their curiosity.

Communicative competence is one of the most important competences for producing knowledge, so if cadets do not know how to communicate successfully or how use it in native environment, their language grammar is not so important. English teacher should develop communicative competence of military students by using language

appropriately in a social context. Using English in a socio-culturally appropriate way is vital way for effective communication and for immersion into an English speaking society and culture.

Using examples from real spoken language of native speaking countries, interacting with them and analyzing them before finally drawing general conclusions from the examples as to how language is used in social context are the ways of developing the communicative competence. Thus, by developing the communicative competence, military students can express their ideas on their specialty and compare with other countries` military system. Developing this competence students can comprehend the reading materials of foreign countries on this sphere, catch other talking, give response, speak fluently and write some kinds of special topics. If the learners do not have information about foreign countries` military system, they will not be able to communicate with others about it, express their ideas on these topics which are connected with their specialty. Not only teaching materials but teaching methods are the main factors of the effectiveness. Therefore, English teachers should choose appropriate methods of teaching[3].

Specialized materials can reflect militarylife events and professional sphere which are interesting for them. Studying the topic «Military trainings» given exercises can be examples for the development of communicative competence of military students[1].

Task 1. Cadet M. Pahmatov is now writing about his week in the life. Ask and answer questions about Pahmatov`s week. Study the examples.

Does cadet have a field training exercise on Friday?No, he doesn`t. He has a field training exercise on Saturday.

Training schedule

Week days	**Monday**	**Tuesday**	**Wednesday**	**Thursday**	**Friday**	**Saturday**
a.m.	5km	weapons training	5km	drill	drill	FTX

morning	foot march		foot march			
p.m. after noon	map reading	first aid training	communications training	obstacle course	NBC	FTX

Task 2. Using the schedule in Task 1 as a model, draft the schedule of your week. Describe your week to the class.

In conclusion, given exercises can provide the effectiveness of the teaching process. Materials with military context can develop communicative competence of military students.Communicative competence is one of the most important competences which can help to provide the effectiveness of the English lessons in Military Institutes.

USED LITERATURE

1.Simon Mellor Clark, Yvonne Baker de Altamirano. Campaign. English for Military. Student`s book (1). Macmillan, 2017. pp.161.

2. Shirinova Nilufar. Increasing communicative competence of military students by organizing esp-classes.MTINGRU, Axborotnoma, 2020. №1.

3. Shirinova Nargiza.Developing the sociolinguistic competence of military students. MTINGRU, Axborotnoma, 2019. №3.

TIL – MILLAT VA MA’NAVIYAT KO‘ZGUSI

Tavakkal Choriyev,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi deputati,
Mudofaa va xavfsizlik masalalari
qo‘mitasi a’zosi

Barchamizga ma’lumki, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga yaqin kunlarda 35 yil bo‘ladi. O‘zbek tili tom ma’noda 1989-yildan davlat

tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi. Yangi O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi ortib bormoqda. O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy davlatlarda tilimizga e’tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda. Bugungi kunda jahon miqyosida 50 millionga yaqin kishi o‘zbek tilida so‘zlashmoqda. Ko‘plab mamlakatlarda bu go‘zal va jozibali til katta ishtiyoq bilan o‘rganilmoqda. Xorijiy davlatlar o‘quvchilari o‘rtasida O‘zbek tili va adabiyoti xalqaro olimpiadasini o‘tkazish yo‘liga qo‘yilgani ham ona tilimizning keng targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda.

Inson uchun kindik qoni tomgan Vatani, dunyoga keltirib voyaga yetkazgan ota-onasi qanchalik aziz va mukarram bo‘lsa, uning o‘zligi va ma’naviy olamini belgilaydigan ona tili ham shunchalik qadrli va mo‘tabardir. So‘nggi yillarda davlat tilining nufuzi va maqomini yuksaltirishga qaratilgan tegishli Farmon va qarorlar, me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 1989-yil 21-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Qonun qabul qilinishi bilan o‘zbek tili, davlat tili sifatida mustahkam huquqiy asos va maqomga ega bo‘ldi. Qonunda davlat tilini rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, davlat organlari va tashkilotlarining davlat tilini rivojlantirish sohasidagi vakolatlari, ta’lim, madaniyat, noshirlik faoliyati va ommaviy axborot vositalarida davlat tilining qo‘llanilishi, jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari va tashkilotlariga davlat tili hamda boshqa tillarda murojaat qilishi, fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtirilishi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkinligi, pochta-telegraf jo‘natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning

xohishiga koʻra – boshqa tilda amalga oshirilishi va boshqa bir qancha huquqiy asoslarning belgilanishi, oʻzbek tilining yillar davomida tadrijiy rivojlanishiga hamda xalqaro nufuzini tobora ortib borishiga bevosita xizmat qilib kelmoqda.

Buyuk allomalar aytganlaridek, xalqimizning koʻp asrlik madaniy, ilmiy-maʼrifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli boʻlgan oʻzbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. Davlat tiliga boʻlgan eʼtiborni yanada kuchaytirish, uning rivojlantirishiga ulkan hissa qoʻshish maqsadida 2019-yilning 21-oktabr kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF–5850-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq, yurtimizda Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi, shuningdek, bir qator istiqbolli hamda strategik ishlar belgilandi. Xususan:

lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini toʻliq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish;

ilmiy asoslangan yangi soʻz va atamalarni isteʼmolga kiritish;

zamonaviy atamalarning oʻzbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qoʻllanishini taʼminlash;

geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish;

oʻzbek tilining yozma nutqi meʼyor va qoidalarini ishlab chiqish;

davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish;

davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet jahon axborot tarmogʻida munosib oʻrin egallashini taʼminlash, oʻzbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish;

taʼlim muassasalarida davlat tilini oʻrgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish;

davlat tilining xalqaro miqyosdagi oʻrni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarini belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi

vatandoshlar va o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan chet el fuqarolari uchun o‘zbek tili darsliklari va elektron dasturlarni ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tarqatish, o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil etish;

davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

“O‘zbek tili bayrami kuni”ni belgilash bo‘yicha qonun loyihasini ishlab chiqish;

amaldagi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunini qayta ko‘rib chiqish hamda yangi tahrirda qabul qilish;

til siyosatinin barqarorligi va bardavomiyligini izchil davom ettirish maqsadida “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish Konsepsiyasi»ni ishlab chiqish masalalar muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur ishlar ijrosini ta’minlash maqsadida milliy qonunchilikka “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Mazkur Konsepsiyada mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish, shuningdek, davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, davlat tilinig zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi strategik ahamiyatga ega ishlar o‘z ifodasini topdi. Ushbu yo‘nallishdagi ishlar o‘z vaqtida bajarish bilan davlat tili kunsayin taraqqiyotga yuz tutadi. Buning evazida ko‘p millatli xalqimiz orasida do‘stona munosibat mustahkamlanib, millatlararo muloqot madaniyati oshadi.

O‘zbekiston – ko‘p millatli yurt. Bugungi kunda demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb e’tirof etilgan O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ko‘pmillatli xalqimiz

orasida millatlararo hamjihatlik va do‘stona munosabat barqaror. O‘zbekistonda inson va uning qadr-qimmati yuksak ulug‘lanmoqda.

Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analarini hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Shuningdek, o‘zining har bir fuqarosini irqi va millatidan qat’iy nazar huquqlarini qonun bilan himoya qiladi. O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlangan. Fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, qonun ustuvorligi ta’minlash sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Inson huquqlari sohasida holat tubdan o‘zgardi. Qayd etilganidek, mamalkatimzda ta’lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari o‘zbek tili bilan birga qoraqalpok, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillarida faoliyat olib borayotgani xalqaro jamoatchilik tomonidan ijobiy hodisa sifatida e’tirof etilmoqda. Dono xalqimiz bejiz aytmagan, “Til bilgan – el biladi”, “Tilni ko‘p bilgan, ko‘pni bilar //Tilni oz bilgan, o‘zini bilar”, “Ko‘p til bilgan – el kezar”, “Til bilgan – yo‘l topar”.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilishi tabiiydir. Ta’kidlaganidek, yer yuzida yetti mingga yaqin til mavjud bo‘lib, huquqiy maqomi, tutgan o‘rni, qo‘llanish doirasiga ko‘ra ular uch turga bo‘linadi. Bular: 6 ta xalqaro til: ingliz, fransuz, ispan, rus, arab, xitoy tillari, 200 ga yaqin davlat tili: o‘zbek, qozoq, nemis va boshqa tillar, qolgan 4800 ga yaqin tillar-mahalliy tillar sanaladi.

Millatlar paydo bo‘libdiki, ularning tili ham ular umri kabi yashaydi va davom etadi. “Til – chamanning ochilgan lolasi bo‘lsa, so‘z durrlari unga qo‘ngan shabnamdir” – deya bejiz aytmagan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy. Insonning botiniy va zohiriy go‘zalligi bayon etilagan fikri va nutqida qo‘llanilgan so‘zida namoyon bo‘ladi. So‘z – noyob

gavhardir, uning sharafi benihoya. Har qanday qimmatbaho gavhar uning oldida sadaf bo‘la olmaydi.

Jadidlardan biri bo‘lgan Abdulla Avloniy so‘zning qadr-qimmatini belgilashdagi roliga umuminsoniy qarashlardan kelib chiqib baho berdi. U shunday yozadi: “ ... so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurg‘on tarozudir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr-qimmatini so‘zllagan so‘zidan biridir... Agar so‘z aql va hikmatga muvofiq bo‘lub, o‘ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqalurg‘on bo‘lmasa, asalarilar orasida qo‘ng‘illab yurgan qovoqari kabi quruq qo‘ng‘ilamoq, faqat bosh og‘rig‘idan boshqa bir narsa emasdir. Boshimizga keladurg‘on qattiq kulfatlarning ko‘pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun “ko‘p o‘yla, oz so‘yla” demishlar”.

Nutq bu tafakkur ko‘zgusi sanaladi. Har bir so‘zni o‘rinli qo‘llash nutq etiketini tashkil etadi.

Ilm-fan, san’at va madaniyat, texnika taraqqiyoti tufayli o‘zbek tiliga son-sanoqsiz yangi so‘zlar kirib keldi va ular ona tilimizning lug‘at tarkibidan o‘ziga xos munosib o‘rin egalladi. Masalan, marketing, lizing, fermer, reyting, market, supermarket, paynet, bakalavr, magistr, ishbilarmon, vazir, hokim, vazirlik, tadbirkor, dastur kabi.

Milliy ruhni o‘zida singdirgan til va adabiyot haqida Abdulla Avloniy shunday deydi: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oinayi hayoti til va adabiyotdur. Milliy tilni yo‘qotmak – millatning ruhini yo‘qotmakdir”. Darhaqiqat, har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o‘zligining, madaniy-ma’rifiy olami, milliy g‘oyasining asosi hisoblanadi.

Tilga e’tibor, bu – millatga e’tibor. Ma’rifatparvar Is’hoqxon Ibrat ta’biri bilan aytganda, “Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilishi uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – bu Vataniy ishdir”.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir fuqaro ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan tilimiz rivojiga mas’uldir. Ushbu mas’ullik hissi farzandlarimiz ongida yoshlikdan tarbiyalangan taqdirda, kelajakda ular

tilimizni dunyo tillari qatoridan o‘rin olishlarida o‘zlarining vatanparvarlik tuyg‘ularini namoyon etaoladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2021. – 80 bet.

2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – O‘zbekiston: “O’zbekiston”, 2021. – 462 bet.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabr “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risid”gi PF–5850-son Farmoni. lex.uz (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.10.2019 y., 06/19/5850/3939-son).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabr “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6084-son Farmoni. lex.uz (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020 y., 06/20/6084/1398-son).

5. Saidov A. O‘zbekiston Konstitutsiyasi tarixi. – Toshkent: “Tasvir”, 2018. – 864 bet.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni (yangi tahrirda. nrm.uz (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi”, 1995-yil, 12-son, 257-modda).

NUTQNI TINGLAB TUSHUNISHNI O‘RGATISHDAGI AYRIM MUAMMOLAR

Darvishova Gulchexra Kenjabayevna,
Tillarni o‘rganish kafedrasi dotsenti,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Inson ma’naviy kamolotga, odatda, eshitish, ko‘rish (kuzatish) va qolaversa, o‘qish tufayli erishadi. Axborot to‘planishida uchala faoliyat orasida tinglab tushunish eng muhimdir. Nutq faoliyat turlarining har

biriga xos qiyinchiliklari bo‘ladi. Tinglab-eshitishda paydo bo‘ladigan qiyinchiliklar bir talay. Ularni bilish ingliz tili o‘rgatishda hal qiluvchi shartlardandir. Idrok etish, jumladan nutqni idrok etib tushunish muammolari jahon ruhshunosligida ancha mufassal ishlab chiqilgan.

Maktab sharoitida o‘quvchilarning tinglab tushunishi sohasidagi qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

1. Tilga oid shakliy qiyinchiliklar. Ma’nosi har xil, tovush shakli esa o‘xshash so‘zlarni (omofonlarni) yoki ingliz tilidagi fe’lning majhul darajasini tinglash va tushunish murakkablik kasb etadi. Omofon va majhul fe’l bir qarashda tanishga o‘xshaydi, biroq audio matnning mazmunini payqashda xiyla qiyinchilik tug‘diradi. Masalan: **a deer – dear - [ə diə] – ohu - [diə] – aziz, qadrli**

The book is read – kitob o‘qildi.

2. Mazmunga doir qiyinchiliklar. Olinayotgan axborot qamrovidagi nima, qayerda, kim bilan, qachon bo‘lishi kabi dalillarni idroq etish bobida yoki ular orasidagi ozaro bog‘lanishlarni ilg‘ab olish, shuningdek, umumiy g‘oyaga taaluqli qiyinchiliklar mavjud.

3. Nutqiy idrok qilishning shart-sharoitlaridagi qiyinchiliklar. Bunda nutqning tezligi, ohangi va mexanik holda yozilgan audiomatnning murakkabligini eslatib o‘tish kifoya. Shu bilan birga audiomatnni bir marta eshitib idrok etish, notanish odamning nutqini tinglash, ovozdagi o‘ziga xoslik kabilar ham bevosita tushunishga g‘ov bo‘lishi tabiiydir.

4. Nutq shakliga oid qiyinchiliklar. Diologik nutqda unga javob berish, monologni tinglashda esa uzun jumlalarni eshitish va uni xotirada saqlash o‘quvchi uchun muayyan qiyinchilik keltirib chiqaradi.

5. Tilshunoslik nuqtai nazaridan paydo bo‘ladigan qiyinchiliklar. Ularni lisoniy-leksik, grammatik va fonetik qiyinchiliklar deb ataladi. Leksikada juft tushunchalar (masalan: dunyo tomonlarini ifodalovchi so‘zlar), ko‘p ma’nolilik (polisemiya), turg‘un birikmalardagi so‘z ma’nolari, yordamchi s’ozlar, grammatik jihatdan ona tilida yo‘q hodisalar yoki fonetik so‘zlarning yozuvda va talaffuzidagi keskin farqlari, urg‘u va ohangning o‘zshamasligi ham qiyinchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

6. Audiomatn tanlash va tuzilishiga oid qiyinchiliklar. Tajribalarda audiomatnning tuzilishi ham qiyinchiliklarga olib kelishi aniqlangan. Chunki, bayon etilayotgan axborotni ilg‘ab olishga uning bevosita dahli bor. Gapning yoki abzatsning bir-biriga mantiqan “yopishishi”, matnning yuzaki yoki chuqurligi, notanish leksik birliklar ishtiroki va qator o‘xshash kompozitsion – mazmuniy holatlar audiomatnning tushunilish darajasini belgilovchi omillardan biridir.

O‘quvchi tinglab tushunishda duch keladigan qiyinchiliklarni e’tirof etishdan maqsad, ularning oldini olish choralarini ko‘rishdir. Uchraydigan har qanday qiyinchiliklar ko‘p mehnat va vaqt talab qiladi, natijada qo‘shimcha maxsus mashqlar bajarishni taqozo etadi. Qiyinchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf qilish yo‘li bilan ta’lim jarayonini jadallashtirish va o‘qitishning eng maqbul (optimal) usullarini ishlab-chiqishga muvaffaq bo‘linadi.

Til o‘rganishda yoki umuman hayotda sodir bo‘ladigan qiyinchiliklar sabab va oqibatning bir-biri bilan bog‘liq ravishda aniqlanadi. O‘quvchilarning o‘zgalar nutqini idrok etishi, uning mazmunini farqlay olishlaridagi qiyinchiliklarga barham berish yo‘lida tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlarini to‘g‘ri shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. J. J. Jalolov. Chet tili o‘qitish metodikasi.- Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996

2. M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent.-“O‘qituvchi”,-2002

3. http://www.homeenglish.com

4. http://www.google.books.uz

MAXMUR SHE’RIYATINING INDIVIDUAL JIHATLARI

Erkayev Elmirza Temirovich

Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, p.f.n.

Jamoliddin Temirov,

Toshkent tibbiyot akademiyasi o‘qituvchisi

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Xamsa”sining tarkibidagi ilk dostoni bo‘lmish “Hayrat ul-abror”da so‘z ta’rif-tavsifiga bir bob bag‘ishlagan. O‘n to‘rtinchi bobning nasriy sarlavhasi berilishi bilan shoir so‘zning inson vujudini yorituvchi yorug‘ yulduz ekanini, inson tanasi bir ma’dan bo‘lsa, so‘z o‘sha ma’danning qimmatbaho javohiri ekanini ta’kidlaydi: “So‘z ta’rifidakim, bashar vujudi sipehrining kavokibi jahontobi va inson zoti ma’danining javohiri serobi durur…”[1].

Ma’lum bir ijodkorning hayoti va individual jihatlarini o‘rganishda u yashagan muhit, o‘sha davrda ishlatilgan til, ijtimoiy hayotga aloqador voqeliklar ham katta ahamiyatga ega ekanligi sir emas. Shu jihatdan so‘zning qudrati, qo‘llanishi ijodkorning mahorati va u yashagan muhit haqida ma’lumot berishi mumkin. Bu borada ijodkor ijodini o‘rganishda individuallik masalasi ham katta ahamiyatga ega, individuallik (lot. individuum - bo‘linmas) - muayyan narsa va hodisa, shaxs va jonivorning o‘zigagina xos, betakror, xususiy belgilaridir. Adabiyotshunoslikda individuallik deyilganda, badiiy tasvirlanuvchi obrazning o‘ziga xos xususiyatlarini ijodkor o‘z asarida qay darajada hayotiy, haqqoniy aks ettirganligini ko‘rsatib beruvchi omili bo‘lishi kerakligi tushuniladi. Aynan shu jihat badiiy asar, asar qahramonining o‘ziga xosligi uning milliyligi va qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligini ham belgilaydi. Bir so‘z bilan aytganda, ijodkorning o‘ziga xos tili va uslubiga xos belgilar ham individuallikni tashkil etadi. Shu jihatdan, “konkret ijodkor merosini to‘laqonli tushunish va xolis baholash uchun uning hayot yo‘li haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, adabiyotshunoslikdagi tadqiqot metodlaridan biri - biografik metodning to‘la samara bilan ishlashi uchun konkret ijodkor hayoti va faoliyati haqidagi hujjatlarga ega bo‘lish lozim”[7].

Undagi ma’lumotlarga ko‘ra: “Maxmur haqida juda oz ma’lumotga egamiz. Fazliy “Majmuat-ush-shuaro”da Maxmurning Umarxon saroyida yashagan mashhur olim va shoir Akmalning o‘g‘li ekanini aytadi. Maxmurning hayoti haqida boshqa ma’lumotlarga ega emasmiz” [4] – deb aytilgan. Yuqorida ta’kidlangan Fazliy qalamiga mansub “Majmuat-

ush-shuaro” tazkirada Maxmurning 500 ta g‘azali kiritilgani ma’lum. XX asrning 50-yillarida Maxmurning ilk devoning topilishi o‘qituvchi Po‘latjon Qayumov va Asqarali Hamroaliyev (Charxiy)lar nomi bilan bog‘liq. Bu qo‘lyozma devon o‘z tarkibiga Maxmurning hajviy yumoristik she’rlari, tarix va qasidalarini o‘z ichiga olganligi qayd etilgan.

Qo‘lyozmani ko‘chirgan kishining nomi, shuningdek shoirning ijod namunalarining yozilgan yili va qo‘lyozmaning qachon yozilganligi yoki ko‘chirilgan yili haqida ma’lumotlar uchramaydi. Faqat bir she’rning yozilgan yili hijriy 1229-yil (1813-1814) deb ko‘rsatilgan.

“Bu devonda shoirning 3417 misrani tashkil etgan 69 asari bo‘lib, ular muxammas, mustahzod, g‘azal, masnaviy, ruboiy, qit’a va bahri madid shaklida yozilgan she’rlardir”[2].

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Maxmur hayotiga doir ma’lumotlar kamligi sababidan biz uning hayotiga oid voqea-hodisalarni o‘rganishda Maxmurning asarlariga, davr adabiy muhitida yozilgan bayoz va to‘plamlarga murojaat qilamiz.

Shoir Maxmur Qo‘qon xonligining markazi bo‘lgan Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. Uning tug‘ilgan yili hozirgacha fanga ma’lum emas. Lekin ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, uning tug‘ilgan davri sifatida XVIII asrning oxirgi choragi taxmin qilinadi. Shoirning otasi Shermuhammad kelib chiqishi Qo‘qon shahri yaqinidagi Boytuman qishlog‘idan bo‘lgan. Maxmurning otasi Akmal taxallusi bilan she’rlar yozgan. Akmalning she’rlari Fazliy tomonidan yig‘ilgan “Majmuat-ush-shuaro” tazkirasida va Sharqshunoslik institutidagi boshqa bayoz va to‘plamlarda uchraydi.

P. Qayumovga ko‘ra, Mulla Shermuhammad Akmal Qo‘qon shahridagi Madrasayi Mirda mudarrislik qilgan. Shoir Akmal to‘g‘risida qisqacha ma’lumot “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat-ul as’hob” asarida ham uchraydi. Bu asarning muallifi Qori Rahmatullo Akmalning kamolga yetishgan, iqtidorli shoir ekanini, uning adabiyot ixlosmandlari orasida ancha obro‘ga ega bo‘lganini aytadi. Bu asar muallifiining yozishicha, Akmal tojik va o‘zbek tillarida yozilgan ikkiga devon tuzgan [4]. Lekin bu asarda Akmalning, xuddi Maxmur kabi tug‘ilgan va vafot etgan yili haqida ma’lumot uchramaydi.

Aytishlariga qaraganda, Mulla Shermuhammad Akmal o‘z davrining tanilgan xattotlaridan Turdialining qiziga, Maxmurning bo‘lajak onasiga uylangan. Xattot Turdiali esa o‘z davrida katta naqshli yozuvlar yozish bo‘yicha shuhrat topganligi aytib o‘tilgan. O‘z navbatida, Maxmurning ijod ahli vakillaridan biri bo‘lib ulg‘ayishiga oilaviy ijodiy muhit sabab bo‘lgan bo‘lsa, ne tong!

Maxmur otasi rahbarlik qilgan madrasada o‘qigan. Aziz Qayumov u yoshlik yillaridan adabiyotga qiziqqanligini, she’rlar mashq qila boshlagani, va bu she’rlari orqali adabiyot shinavandalari orasida muhokama mavzusi bo‘lganligini qayd etadi.

Maxmur oilasida iqtisodiy jihatdan qiyinchiliklar, muhtojliklar bo‘lganini she’rlarida qayd etadi. Hatto, farzandlarini ham ta’minlay olmaganini bir she’rida kuyinganicha yozadi:

Har se atfoli duogo‘ye, ki hazrat donand,
Har sero banda tasadduq kunam az hazrati jon.
Ro‘zi id ast nadorand libose har se,
Onchi zodand zamon nav hamon, tarz hamon.

Satrlarda yozilishicha, bu duogo‘yning - ya’ni duo qiluvchi, ko‘p ehtimol shoir o‘zini nazarda tutgan, Maxmurning har uch bolasi, hazrat biladilar (uchinchi shaxsga murojaat qilgancha), har uch farzandini jonidan ortiq sevishini aytadi. Bugun hayit kuni bo‘lishiga qaramay, farzandlari uchun kiydirishga kiyimi yo‘q ekanligini, onadan qay holatda tug‘ilgan bo‘lsa, shu holatda ekanligini qayd etadi. Albatta, bunday satrlarni yozish ota uchun juda og‘ir, lekin Maxmur (davr Maxmurlarinining) iqtisodiy muhtojligini shu orqali ifodalab bergan bo‘lsa, ne ajab!

Shoir oilasining iqtisodiy tomonlama muhtojlik ichida yashagani bir qator she’rlarida ta’kidlanadi. Maxmurning “Maxmurning Amir Umar Sultonga arzi” sarlavhali she’ri quyidagicha boshlanadi:

Ey jahongiri dinu-dunyo ham,
Berdi haq dinu davlatingni baham.
Arz etar xokisor Maxmuring,
Banda zodi zalili mahjuring...

She’rning avj nuqtalarida esa uyida yeyish uchun ovqati ham yo‘qligi, bir hovuch ham g‘alla qolmagani shoirning quyidagi misralarida bayon qilinadi:

Kechalar yotgani na qo‘shim bor
Kunduzi ichgani na no‘shim bor.
Bir hovuch na uyimda g‘allam bor,
Ikki gaz na boshimda sallam bor.
Boshima gaz desamki, sallam yo‘q
Salla desam, uyimda g‘allam yo‘q.

Davomiy iqtisodiy qiyinchilik, ochlik shoirning ko‘ngliga og‘ir botar, farzandlarining och qolganini ko‘rib yuragi ezilar, o‘zining muhtojliklarga to‘la hayotidan qayg‘uga botar edi.

Maxmur o‘zining bir she’rida xon o‘rdasida oddiy sipoh bo‘lib xizmat qilganini ilg‘ash mumkin. Bu holat shoir Maxmur va “Zarbulmasal”chi Gulxaniyning har ikkalasi bir xil darajadagi xizmat qilganligini ko‘rsatadi. Chunki Gulxaniyning ham sipoh bo‘lib xizmat qilgani ma’lum. Sipohlik davrida Maxmur xonning yurishlarida ishtirok etishga majbur bo‘lgan bo‘lishi, tabiiy.

Ehtimol, bu jarayon shoirning Qurama viloyatiga atab yozgan she’rida ana shunday safarlardan birini tasvirlash uchun yozilgandir. Ulardagi misralarga e’tibor beraylik:

… Ba nazdi hazrati xonu, ba peshi shohi amir,
Erur o‘l oldida sardori sarvaron Qurama.
Qilib makonida do‘konu, sikkayi zarrot,
Flusu tanga urib shahr aro ayon Qurama.
Ajabki shohi jahon aylamas buni tahqiq,
Erur bu qobili toroji xonumon Qurama…

Bir so‘z bilan aytganda, Maxmur iqtisodiy jihatdan yaxshigina qiynalgani, bolalarining yo‘qchilikdan ezilayotganini ko‘rish u uchun og‘ir bo‘lgan va bunday hol hech bir oilaga dahl solmasligini istashi ko‘p she’rlaridan ma’lum.

Oddiy xalq dardini ko‘ylagan to‘liq nomi “Dar sifati qishloqi Hapalak ki bam mahdum Maxmur taalluq yofta” (Maxmur mahdum aloqador bo‘lgan Hapalak qishlog‘ining sifatida) nomli “Hapalak” she’ri

davrning asl yuzini koʻrsatib beruvchi xususiyati bilan ahamiyatlidir. Ushbu qishloq aholisining misolida shoir yashagan davrning ijtimoiy hayotiga toʻxtalib, qashshoqlik, yoʻqchilik, ochlik kabi muammolarni yoritishdagi oʻrni beqiyosdir. Shoir yozadi:

…Turfa qishloqi gʻazab karda ki parrandalari,
Tovuqi ignachi-yu, oʻrdagu gʻozi kapalak.
Voru yoʻq uylarini banda bayon gar qilsam,
Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, toʻrt katalak.
Dema uy, balki zaminkandir, agar kirsa kishi,
Har taraf betiga urgaylar aning ko'rshapalak [3].

Hapalak qishlogʻi aholisining shu qadar xarobligini ifodalash maqsadida parrandalar-u qushlarning goʻyo ignachi va kapalak kabi boʻlib qolganligini aytgan shoir, ushbu qishloqning nochorligini oʻquvchi koʻz oʻngida jonli gavdalantirgan hamda xonlik tarkibida bu kabi "Hapalak" qishlogʻilar koʻp ekanligini aytib oʻtib oʻtgan boʻlishi ehtimoli yoʻq emas. Maxmur bu kabi she'rlari orqali oʻsha davr ijtimoiy muhitidagi koʻplab muammolarni yoritishni niyat qilganligi koʻrinib turadi. Suvsizlik muammosi, mamlakatning xarobligi nafaqat yuqorida qayd etganimiz Hapalak haqidagi she'rida, balki Qurama hududi haqidagi she'rida ham koʻzga tashlanadi:

Turfa shahri-ki aning sar-sari monandi samum,
Kuydirur shiddati sarmosi xaloyiqni chu mum,
Har taraf anda olib xayli balo, favji hujum,
Suvi zahrobayi gʻam, chashmalari ayni zaqum,
Hosili mahsuli ofoti baqoyi Qurama.
Yozu-qish oʻru, yalangʻoch naru-modasidir,
Moda zodi galayi xirs sogʻin podasidir,
Olti xurjinni olib boʻyniga ozodasidir,
Sar-sari od dami subhni shabbodasidir,
Dema toʻfon ki nasimi zurafoyi Qurama.

Maxmur bu kabi she'rlari yuqori tabaqa vakillari boʻlmish shoh va uning atrofidagi kimsalarning xalq boshiga solgan koʻrguliklarni, ularning sababkorlarini ayovsiz tanqid ostiga olib, real hayot voqeligini yoritish yoʻlidan bordi. Maxmur ijodi va hayotining uygʻunligi haqida

Aziz Qayumov yozadi: “Maxmur she’rlari XIX asr boshlarida Qo‘qon xonligidagi ijtimoiy hayotni, xonlar va beklar zulmida ezilgan mehnatkash dehqonlarning og‘ir ahvolini, ko‘p ilg‘or fikrli kishilarning xor-u zorlikda yashaganini real va aniq ifodalaydi va uning xalqparvar shoir ekanligini ko‘rsatadi.”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Yettinchi tom. – T.: Fan, 1991. – B.57.
2. Азиз Қаюмов. “Махмур.” Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти.
   – Тошкент, 1958. - 34 б.
3. Махмур девони.
4. Tuxfat-ul axbob fi tazkirat-ul as’hob, Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmasi, № 1857, varaq 15 a.
5. Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси, т. II. – Тошкент, 1990. – Б. 224.
6. Ўзбек поэзиясининг антологияси. – Тошкент, 1948.– Б.189.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.
   –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, 2004. –18 b.

DUNYO TAJRIBASIDA SUDLANGAN SHAHSLARGA VA MAXBUSLARGA INGLIZ TILINI O'QITISH

Ikanova Lazokat

“Tillarni o‘rganish” kafedrasi katta o‘qituvchisi

O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

lazokat.ikanova@icloud.com

Sobiq sudlangan shahslarga ingliz tilini o'qitish o'ziga xos muammolar va imkoniyatlarni taqdim etadi. Turli mamlakatlarda bu sohada ishlab chiqilgan strategiya va dasturlar sobiq mahkumlarga jamiyatga qayta moslashish jarayoniga yordam berishda til ta'limining

ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu maqola sobiq mahkumlarga ingliz tilini o'qitishdagi jahon tajribalarini yoritib beradi va til ta'limining qayta ijtimoiy integratsiya jarayonidagi ahamiyatini yoritib beradi.

1. Amerika Qo'shma Shtatlari

AQShda qamoqxona muassasalarida ta'lim dasturlari, jumladan, til kurslarini taklif etish, sobiq mahkumlarga qayta ijtimoiy integratsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Ko'plab qamoqxonalarda ingliz tilini bilmagan mahkumlar uchun ingliz tili savodxonligi kurslari mavjud. Bular yordamida ular ish topish imkoniyatlarini yaxshilaydi va jamiyatga qaytishda muammolarga duch kelmaydi.

Chiqqandan keyingi qo'llab-quvvatlash dasturlari, masalan, ***"Prisoner Reentry Network"*** va mahalliy jamoat kollejlarida sobiq mahkumlarga til va kasbiy ta'lim beriladi. Bu dasturlar sobiq mahkumlarning qamoqdan chiqishi va ish topishi o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirishga yordam beradi.

Shuningdek, nodavlat tashkilotlar, ta'lim muassasalar va qamoqxona muassasalar o'rtasidagi hamkorlik dasturlari mavjud bo'lib, ular til o'qitish va psixologik yordamni birlashtirib, sobiq sudlanganlarga yordam beradi.

2. Buyuk Britaniya

Buyuk Britaniyada ESOL (English for Speakers of Other Languages) darslari sobiq mahkumlarga ingliz tilini yaxshilash imkoniyatini beradi. Bu dasturlar ko'pincha davlat tomonidan moliyalashtiriladi va mahalliy jamoat tashkilotlari orqali o'tkaziladi.

Buyuk Britaniya qayta joylashtirish xizmatlari, masalan, ***"National Probation Service"***, til ta'limini keng qamrovli strategiyalarga qo'shadi. Bu dasturlar ish va kundalik hayot uchun zarur bo'lgan amaliy til ko'nikmalariga e'tibor qaratadi. Ba'zi dasturlar til ko'nikmalarini yaxshilash orqali qayta jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan.

3. Germaniya

Germaniyada immigrantlar va qochqinlar uchun til va integratsiya dasturlari mavjud. Bu dasturlar, ba'zan avvalgi jinoyat tarixiga ega bo'lgan shaxslar uchun ham mo'ljallangan bo'lib, Germaniya jamiyatiga integratsiya qilishga yordam beradi.

Ta'lim orqali reabilitatsiya Germaniya tizimining asosiy qismi hisoblanadi. Til kurslari ko'pincha kasbiy ta'lim bilan birlashtiriladi, bu sobiq mahkumlarga muvaffaqiyatli qayta integratsiyalashishda yordam beradi. “Caritas” va “Diakonie” kabi qo'llab-quvvatlash tarmoqlari sobiq mahkumlarga til darslari va qo'shimcha yordam xizmatlarini taklif etadi.

4. Avstraliya

Avstraliyada qamoqxona muassasalarida, jumladan, til kurslarini taklif etadigan ta'lim dasturlari mavjud. Bu dasturlar savodxonlik va ishga yaroqlilikni oshirishga qaratilgan bo'lib, jinoyatchilikka olib keluvchi ta'lim muammolarini hal qilishga yordam beradi.

Jamoat asosidagi dasturlar, masalan, ***“The Salvation Army”*** va ***“Brotherhood of St Laurence”*** kabi tashkilotlar sobiq mahkumlarga til kurslari va boshqa yordamlarni taqdim etadi. Avstraliyada qayta integratsiya dasturlari ta'lim va ta'limning kuchli e'tiborini o'z ichiga oladi, bu sobiq mahkumlarning barqaror hayot qurishida muhim rol o'ynaydi.

5. Kanada

Kanadada qamoqxona muassasalarida ta'lim dasturlari, jumladan, til ta'limi mavjud bo'lib, ular ingliz tilini yaxshilash va qayta jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan. ***“Elizabeth Fry Society”*** va ***“John Howard Society”*** kabi tashkilotlar sobiq mahkumlarga til va savodxonlik dasturlarini taklif etadi.

Bu kabi til kurslari davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligi orqali sobiq mahkumlarga til ta'limi va keng qamrovli qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etish amalga oshiriladi.

Samarali dasturlar ko'pincha til ta'limini kasbiy ta'lim, psixologik yordam va ijtimoiy qayta integratsiya xizmatlari bilan birlashtiradi. Qamoqxona muassasalari, ta'lim muassasalari, nodavlat tashkilotlar va davlat agentliklari o'rtasidagi hamkorlik bu dasturlarning muvaffaqiyatida muhim rol o'ynaydi. Muvaffaqiyatli dasturlar ko'pincha sobiq mahkumlarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtiriladi, ularning tajribalari, psixologik holatini va maqsadlarini hisobga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Libeling, A. (2004). Prisons and their Moral Performance: a Study of Values, Quality and Prions Life. Oxford: OUP.

2. Hawley J., Murphy I, Souto-Otero M. (2013). Prison Education and Training in Europe: *A summary report authored for the European Commission by GHK Consulting,* 12-34.
3. Ikanova, L. S. (2024). JAZONI IJRO ETUVCHI MUASSASSALARDA, TA'LIMNI TASHKIL QILISH TAJRIBALARI (AQSH MISOLIDA): Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, *7*(3), 26-31.

ELEVATING LEXICAL COMPETENCY IN ENGLISH LANGUAGE PROFICIENCY AMONG CADETS THROUGH THE TOTAL PHYSICAL RESPONSE (TPR) METHOD AND ADAPTIVE TECHNOLOGIES

Sayyora Islomxo'jayeva Nozim qizi,
Teacher at The University of Public Safety
of The Republic Of Uzbekistan

Annotation: This article explores the effectiveness of the Total Physical Response method combined with adaptive technologies in enhancing lexical competency in English among cadets. The approach emphasizes the integration of physical movement with language learning to promote retention and understanding.

Keywords: *Lexical Competency, English Language Proficiency, Total Physical Response, Adaptive Technologies, Language Acquisition*

In today's globalized world, proficiency in the English language is essential, particularly for cadets preparing for international roles. Lexical competency, which refers to the understanding and use of vocabulary, is a crucial aspect of language learning by cadets[1]. This article examines how the TPR method and adaptive technologies can be employed to

[1] Asher, J. J. (1969). The Learning Strategy of Total Physical Response: A Model for Language Learning.

enhance lexical skills among cadets. The TPR method, developed by James Asher in the 1960s, is based on the coordination of language and physical movement. It involves learners responding to commands that require physical actions, thereby fostering a deeper connection with the language. For cadets, who often thrive in kinetic learning environments, TPR can make vocabulary acquisition more engaging and memorable. For example, cadets may learn action verbs by physically performing the actions they represent. Adaptive technologies, such as language learning apps and interactive software, can complement the TPR method by providing personalized learning experiences. These tools can assess individual proficiency levels and adapt content accordingly, ensuring that each cadet progresses at their own pace. By integrating multimedia resources, such as videos and games, these technologies can enhance motivation and retention, making learning more dynamic.Adaptive technologies, including language learning apps and interactive software, can effectively complement the Total Physical Response (TPR) method by offering personalized learning experiences. These technologies can assess individual progress and adjust content accordingly, ensuring that cadets engage with vocabulary at their own pace. Features like instant feedback and gamification can enhance motivation and retention, while interactive elements allow for practice in a variety of contexts. By integrating these tools with TPR, educators can create a more holistic and engaging language learning experience that meets the diverse needs of cadets.

Combining TPR with adaptive technologies can create a holistic learning environment[2]. For instance, after engaging in physical activities related to vocabulary, cadets can use adaptive platforms to reinforce their learning through quizzes and interactive exercises. This dual approach not only solidifies their understanding of new words but also encourages active participation and collaboration among peers. To effectively implement this integrated approach, training instructors in both TPR

[2] Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.

techniques and the use of adaptive technologies is crucial. Workshops and hands-on sessions can equip educators with the necessary skills to facilitate this innovative learning method. Additionally, creating a structured curriculum that incorporates both elements will help in systematically elevating lexical competency.Combining Total Physical Response (TPR) with adaptive technologies can create a holistic learning environment that addresses various learning styles and needs[3]. TPR's kinesthetic approach fosters active participation and reinforces vocabulary through physical actions, while adaptive technologies provide tailored feedback and personalized learning paths. This synergy promotes deeper engagement, allowing cadets to practice language skills in dynamic and meaningful contexts. As a result, learners can achieve better retention and mastery of English, equipping them with essential communication skills for their future endeavor.

Conclusion

Enhancing lexical competency in English among cadets through the Total Physical Response method and adaptive technologies offers a promising strategy for effective language acquisition. By harnessing the benefits of physical movement and personalized learning, educators can create a more engaging and impactful language learning experience. Future research and practice should focus on refining these methods to maximize their effectiveness in various educational contexts. In conclusion, enhancing lexical competency in English among cadets through the Total Physical Response method, combined with adaptive technologies, represents a dynamic and effective approach. TPR engages learners physically, reinforcing language acquisition through action, while adaptive technologies provide personalized learning experiences that cater to individual needs. This dual strategy not only fosters improved vocabulary retention but also enhances overall language proficiency, making it particularly suitable for the diverse learning styles of cadets. Utilizing TPR alongside adaptive technologies represents a promising

[3] Lantolf, J. P. (2000). Introducing Sociocultural Theory. In J. P. Lantolf (Ed.), Sociocultural Theory and Second Language Learning. (pp. 1-26). Oxford University Press.

strategy for improving English lexical competency among cadets. This method fosters an engaging and effective language learning experience, preparing cadets for real-world communication challenges.

Bibliography

1. Asher, J. J. (1969). The Learning Strategy of Total Physical Response: A Model for Language Learning.
2. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.
3. Dörnyei, Z., & Ushioda, E. (2011). Motivation, Language Identity and the L2 Self. Multilingual Matters.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
5. Lantolf, J. P. (2000). Introducing Sociocultural Theory. In J. P. Lantolf (Ed.), Sociocultural Theory and Second Language Learning. (pp. 1-26). Oxford University Press.

AXBOROTLASHGAN DUNYODA MILLIY XAVFSIZLIKNI SAQLANIB QOLISHNING FALSAFIY MASALALARI

Karimov Muhammadrahim Salimjon o'g'li
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnalogiyalari instituti "Gumanitar fanlar " kafedrasi assistenti
kmuhammadrahim1212@gmail.com
+998911202522
"Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish" ta'lim yo'nalishi talabasi
Abduqodirov O'tkirbek Axmadillo o'g'li
Abduqodirovotkirbek404@gmail.com
+998884811160

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida milliy xavfsizlikni ta'minlashning falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Axborot va kommunikatsion texnologiyalarning keng rivojlanishi natijasida global xavfsizlik muammolari o'zgarmoqda. Shu jarayonda milliy manfaatlar, suverenitet va ijtimoiy barqarorlikni saqlash strategiyalari qayta ko'rib

chiqilmoqda. Maqolada axborot makonining cheksizligi, uning individual va ijtimoiy onggagi ta'siri, shuningdek, axborot tahdidlariga qarshi kurashishning falsafiy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Milliy xavfsizlikni ta'minlashda axborot madaniyati, axborot texnologiyalaridan foydalanuvchilarning mas'uliyati va davlatlarning roliga urg'u beriladi. Shu orqali milliy xavfsizlikning barqarorligini ta'minlash va axborot xurujlariga qarshi himoyani tashkil etish masalalari chuqur yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Axborotlashgan jamiyat, milliy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, falsafiy tahlil, raqamli xavfsizlik, global xavfsizlik muammolari, texnologik rivojlanish va xavfsizlik, davlat suvereniteti , axborot urushlari, jamiyat va xavfsizlik, kiberxavfsizlik ma’lumotlarning himoyasi, geosiyosiy omillar, globalizatsiya va milliy xavfsizlik, axborot makoni nazorati.

Zamonaviy dunyoning texnologik rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning kengayishi va global axborot tizimlarining jamiyatdagi markaziy roliga bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda milliy xavfsizlik nafaqat hududiy himoya yoki iqtisodiy mustaqillikka, balki axborot va raqamli makonda mustahkamlikni saqlashga ham bog‘liq. Mavzuning dolzarbligi bir necha asosiy omillar bilan izohlanadi:

Axborotlashgan jamiyatda kiberxavfsizlik muammolari global darajaga chiqib, davlatlarning milliy xavfsizligini jiddiy xavf ostiga qo‘ymoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari, internet va raqamli tarmoqlar orqali davlatlar bir-birlariga ta'sir o‘tkazishi yoki bir-birlarining ichki ishlariga aralashishi imkoniyatiga ega bo‘ldi. Kiberhujumlar orqali davlatlarning muhim infratuzilmalari ishdan chiqarilishi, axborot o‘g‘irlanishi yoki buzilishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun milliy xavfsizlikni saqlash masalasi axborot va kiberxavfsizlikka ko‘proq bog‘lanib bormoqda.

Falsafiy nuqtai nazardan, bu mavzuning dolzarbligi texnologik vositalar orqali reallikning manipulyatsiya qilinishi va bilimning buzilishi tahdidini anglatadi. Haqiqatni noto‘g‘ri aks ettirish, soxta axborotlar tarqatish orqali davlatlar o‘z xavfsizligini yo‘qotishi mumkin. Shu sababli, axborotning haqqoniyligi va uning manipulyatsiyaga uchramasligi milliy xavfsizlikning falsafiy asosi sifatida e’tirof etiladi.

Axborotlashgan dunyoda milliy suverenitet faqat hududiy chegaralar bilan cheklanmaydi. Axborot makonidagi mustaqillik va boshqaruv ham suverenitet tushunchasining muhim qismiga aylanmoqda. Axborot texnologiyalari va raqamli infratuzilma davlatning siyosiy va iqtisodiy qudratini ifodalaydi, va ularning zaiflashishi milliy xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi.

Falsafiy jihatdan bu dolzarb masala davlat suverenitetining yangi shakllari bilan bog‘liq bo‘lib, axborot makonidagi nazoratning yo‘qolishi davlatning o‘zligini saqlab qolish uchun xavfli bo‘lishini ko‘rsatadi. Global axborot oqimlari va xalqaro raqamli tizimlar davlat chegaralarini "virtual" qilib qo‘yadi, va bu suverenitet masalalarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Axborotlashgan jamiyat global axborot va iqtisodiy tizimlar bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli, milliy xavfsizlik masalalari ko‘p hollarda xalqaro va transmilliy muammolar bilan bog‘lanib ketadi. Bir davlatning axborot xavfsizligi boshqa davlatlardagi xavfsizlik tizimlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Katta davlatlar yoki transmilliy korporatsiyalar tomonidan axborot va resurslar ustidan nazorat qilish milliy xavfsizlikni zaiflashtirishi mumkin.

Bu falsafiy nuqtai nazardan dolzarb, chunki davlatlarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati, milliy suverenitet va xalqaro tizimlar o‘rtasidagi kuchlar balansini muvozanatlash zarurati doimiy o‘zgarishlarni talab qiladi. Xalqaro axborot tizimlari orqali davlatlar o‘rtasida raqobat va hamkorlikni qanday tashkil qilish milliy xavfsizlikni belgilovchi omillardan biriga aylanmoqda.

Axborotlashgan jamiyatda soxta yangiliklar va axborot manipulyatsiyasi global muammoga aylandi. Axborotning noto‘g‘ri tarqatilishi va reallikni buzish orqali davlatlar ichki siyosiy va ijtimoiy barqarorligiga tahdid solinmoqda. Bu, nafaqat demokratik jamiyatlarda, balki avtoritar tizimlarda ham xavf tug‘diradi.

Falsafiy jihatdan bu mavzuning dolzarbligi haqiqat va yolg‘onning bir-biriga aralashishi, bilim va axborot o‘rtasidagi chegaraning yo‘qolishi bilan bog‘liqdir. Haqiqatning aks ettirilishi va axborot oqimlarining nazorati davlatning milliy xavfsizligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Soxta axborot

oqimlari jamiyatda ishonchsizlikni oshirishi, ijtimoiy qo‘rquv va beqarorlikni kuchaytirishi mumkin.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi inson huquqlariga ham ta’sir qilmoqda. Kuzatuv texnologiyalari, raqamli kuzatuv va shaxsiy ma'lumotlarning keng ko‘lamda yig‘ilishi insonning maxfiylik huquqlarini cheklashi mumkin. Milliy xavfsizlikni ta’minlash uchun davlatlar tomonidan kuchaytirilgan nazorat va kuzatuv tizimlari inson huquqlari va erkinliklari bilan ziddiyatga tushishi mumkin.

Bu masalaning dolzarbligi shundaki, axborotlashgan jamiyatda milliy xavfsizlik va inson erkinliklari o‘rtasida doimiy balans talab etiladi. Falsafiy nuqtai nazardan, davlatning xavfsizlikni ta’minlash vazifasi insonlarning asosiy huquqlari bilan cheklanadi, va bu ikki omilning muvozanatini topish zamonaviy falsafiy muammolardan biridir.

Sun’iy intellektning rivojlanishi va axborot tizimlarining avtomatlashtirilishi milliy xavfsizlik masalalariga yangi xavflar olib keldi. Sun’iy intellektning noto‘g‘ri ishlatilishi yoki nazoratsiz qoldirilishi davlatlar o‘rtasida raqobatni kuchaytirishi va axborot tizimlari orqali zarar yetkazish imkoniyatlarini oshirishi mumkin.

Falsafiy nuqtai nazardan, sun’iy intellekt va raqamli tizimlarning axborot va xavfsizlikka ta’siri inson va texnologiya o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ko‘rsatadi. Texnologiya inson hayotini osonlashtirsada, noto‘g‘ri yoki zararli ishlatilishi milliy xavfsizlikni tahdid ostiga qo‘yadi.

Insonning texnologiyaga bo‘lgan ishonchi: Sun'iy intellekt va raqamli tizimlar ko‘pincha xavfsizlikni oshirish vositasi sifatida ko‘riladi, ammo ular orqali nazorat va manipulyatsiya qilish imkoniyati ham kuchayadi. Bu insonning texnologiyaga bo‘lgan ishonchi va undan foydalanganda yuzaga keladigan axloqiy masalalarni keltirib chiqaradi.

Avtonomiya va nazorat: Sun'iy intellekt tizimlarining o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati va raqamli texnologiyalarning nazorat mexanizmlari insonlar ustidan nazorat kuchini oshiradi. Bu insonning erkinligi va mustaqilligi masalasini ko‘ndalang qo‘yadi.

Axborotning manipulyatsiyasi: Sun'iy intellekt orqali axborot oqimlari boshqarilishi va filtrlanishi xavfi mavjud. Falsafiy nuqtai nazardan,

bu haqiqatni qanday tushunish va qabul qilishga ta’sir ko‘rsatadi, ya'ni haqiqatning sub'yektiv talqin qilinishi xavfi kuchayadi.

Xavfsizlik va inson qadr-qimmati: Raqamli tizimlar va sun'iy intellekt yordamida xavfsizlikni ta'minlash inson huquqlari va qadr-qimmatiga zid bo‘lmasligi kerak. Falsafa, bu borada texnologiyalar qaysi chegaralardan o‘tmasligi kerakligini tahlil qiladi.

Inson va mashina o'rtasidagi munosabatlar: Texnologiya, ayniqsa sun'iy intellekt, insonning roli va o'rnini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Falsafiy jihatdan bu insoniyatning o'zini tushunishi va jamiyatdagi o'rniga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni insonning texnologiyaga qaram bo'lib qolish ehtimoli yoki inson ustunligi va yaratuvchilik rolining saqlanib qolishi masalasi dolzarb bo‘ladi.

Shu jihatlar sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning axborot xavfsizligi kontekstida falsafiy tahlil qilinishi kerakligini ko‘rsatadi.

Axborotlashgan jamiyatda milliy xavfsizlikni saqlab qolishning falsafiy mohiyati dolzarb masala bo‘lib, u milliy suverenitet, axborot makoni, inson huquqlari va texnologik xavfsizlik bilan bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari va raqamli resurslarning rivojlanishi xavfsizlikning yangi o‘lchamlarini shakllantirdi, va bu jarayon jamiyatning axborot va haqiqatni qanday tushunishi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli, milliy xavfsizlik nafaqat harbiy va siyosiy yo‘nalishda, balki axborot va texnologiyalar sohasi orqali falsafiy nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Foydananilgan adabiyotlar.

1. **Bauman, Zygmunt** – *Liquid Modernity* (2000). Axborotlashgan va globalizatsiyalashgan jamiyatning falsafiy asoslari haqida chuqur tahlillar.
2. **Castells, Manuel** – *The Information Age: Economy, Society and Culture* (1996-1998). Uch qismli seriya bo'lib, global axborotlashgan jamiyatda iqtisodiyot, siyosat va xavfsizlik haqida.

3. Muhammadrakhim, Karimov, and Mamatyusupova Rozikhan. "Philosophical Analysis of the Concepts of Youth Worldview and Innovative Thinking." *Miasto Przyszłości* 48 (2024): 719-725.
4. Muhammadrakhim, Karimov, and Esonova Iroda. "Analysis of socio-philosophical ideas in the works of Alisher Navoi." *Miasto Przyszłości* 48 (2024): 307-311.
5. Muhammadrahim, Karimov, and Nomonova Rozihan. "Philosophical Analysis of Technique and Technology in the Global Space." *Miasto Przyszłości* 48 (2024): 312-316.
6. Abdukayumovna, Karimova Muyassarkhon. "RAISING THE INNOVATIVE THINKING OF STUDENT-YOUTH." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 585-590.
7. KARIMOV, Muhammadrahim. "TA'LIM VA TARBIYADA OILA OMILI." *News of UzMU journal* 1.1.3 (2024): 121-124.

DINIY TUSHUNCHA VA ATAMALARNING O‘ZBEK TILIDA IFODALANISHI

Karimov Nasibjon Ikromidin o'g'li
"Gumanitar fanlar " kafedrasi assistenti
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnalogiyalari instituti
karimovnasibjon7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada diniy tushuncha va atamalarning o‘zbek tilida qanday ifodalanishi, ularning milliy til va madaniyatga ta'siri hamda to‘g‘ri qo‘llanilishining ahamiyati yoritib berilgan. O‘zbek tili va islom dini orasidagi aloqalar tahlil qilinib, arab tilidan kirib kelgan diniy atamalarning tarjima jarayonida duch kelinadigan muammolar, shuningdek, ularning chuqur ma'no va mazmuni tushuntiriladi. Shuningdek, maqolada diniy atamalarni noto‘g‘ri qo‘llash oqibatlari va ularni to‘g‘ri anglash masalalari muhokama qilinib, ulamolar va tilshunoslarning hamkorligi zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so’zlar: Diniy atamalar, O‘zbek tili, Islom dini, Arabcha so‘zlar, Tarjima, Ma’naviyat, Milliy madaniyat, Qur’on, Hadis, Tushunchalar, Taqvo, Shirk, Tavba, Diniy meros, Lug‘at

Diniy tushuncha va atamalarning o‘zbek tilida ifodalanishi

Diniy tushuncha va atamalar har bir millatning madaniyati, ma’naviyati va e’tiqod tizimining muhim qismidir. O‘zbek xalqining diniy merosi ham ming yilliklar davomida shakllanib, boyib kelgan. Islom dini O‘zbekistonda keng tarqalgan bo‘lib, uning diniy atamalari o‘zbek tilida keng qo‘llaniladi. Ushbu maqolada diniy tushunchalarning o‘zbek tilida qanday ifodalanishi, ularning til va madaniyatga ta’siri haqida fikr yuritiladi.

Diniy atamalarning til va madaniyatga ta’siri

Diniy atamalar – bu har bir dinning e’tiqodi, ibodatlari va diniy amallari bilan bog‘liq so‘zlar va iboralardir. O‘zbek xalqining diniy merosi asosan islomga asoslangan bo‘lsa-da, boshqa dinlarga oid ba’zi tushunchalar ham tilimizga kirib kelgan. Islom dini o‘zbek tilining lug‘at boyligiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Qur’on va hadislarda uchraydigan diniy atamalar ko‘pincha asl arabcha shaklida saqlanib qolgan. Bunga misol sifatida **"salom", "duo", "namoz", "savob", "gunoh", "tavba", "ro‘za", "zakot"** kabi atamalarni keltirish mumkin.

Bunday atamalar diniy-madaniy hayotning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ularning o‘zbek tilidagi ifodasi faqat din bilan bog‘liq bo‘lib qolmay, balki kundalik hayotda ham ishlatiladi. Masalan, "salom" (islomda salomlashuv) kundalik hayotda insonlar o‘rtasidagi muomala shakli sifatida keng qo‘llaniladi. Yoki "savob" so‘zi ham faqat diniy ma’noda emas, balki biror ezgu amalni bajarish orqali hayotda yutuqqa erishish tushunchasini bildiradi.

Diniy atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qilish masalasi

O‘zbek tilida diniy tushunchalar va atamalarni ifoda etish jarayonida ko‘p hollarda arab tilidan kelgan so‘zlar qo‘llanadi. Buning sabablaridan biri islom dinining asosan arab tiliga asoslanganligi va Qur’onning asli arab tilida nozil bo‘lganligidir. Shu bilan birga, ayrim atamalarni tarjima

qilish jarayonida tilning o‘ziga xosligi ham inobatga olinadi. Masalan, **"tavhid"** (Allohning birligi) so‘zining ma’nosi o‘zbek tilida "yagonalik" sifatida ifodalanadi, yoki **"shirk"** (Allohga sherik qo‘shish) so‘zi "jo‘r qo‘shish" deb tarjima qilinadi.[10:4]

Tarjima jarayonida ayrim atamalarni aynan tarjima qilish murakkab bo‘lib, ma’naviy va diniy nuqtai nazardan to‘liq anglanishi uchun qo‘shimcha tushuntirish talab qilinadi. Misol uchun, **"taqvo"** so‘zi o‘zbek tilida "Allohdan qo‘rqish" yoki "Allohdan qo‘rqqan holda ezgu amallar qilish" tarzida izohlanadi. Bu atama aslida chuqur diniy-falsafiy mazmunni anglatib, uni sodda tarjima qilish to‘liq ma’noni ifodalashga qodir emas.

O‘zbek tilida diniy atamalarni to‘g‘ri qo‘llash masalasi

Bugungi kunda O‘zbekistonda diniy atamalarning to‘g‘ri qo‘llanilishi va ularning mazmunini to‘g‘ri anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, ayniqsa, yosh avlodning diniy tushunchalarini shakllantirishda juda zarurdir. Diniy atamalarni noto‘g‘ri qo‘llash yoki ular mazmunini noto‘g‘ri tushunish turli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, diniy tushunchalarni o‘zbek tilida to‘g‘ri ifoda etish uchun islomiy ta’limotni chuqur biladigan ilmiy ulamolar va tilshunoslar hamkorlikda ishlashi lozim.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda diniy ma’rifatni oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida diniy atamalarni to‘g‘ri ishlatish masalasi ham ko‘tarilmoqda. Madaniyat va ma’rifatning rivojlanishi jarayonida o‘zbek tilining roli yanada ortmoqda va diniy atamalarni zamonaviy tilga moslashtirishga e’tibor kuchaymoqda.[6:1]

Xulosa

O‘zbek tilidagi diniy atamalar va tushunchalar milliy ma’naviyat va madaniyatning ajralmas qismidir. Ularning to‘g‘ri ishlatilishi nafaqat diniy e’tiqodni shakllantirishda, balki xalqning tarixiy va madaniy merosini saqlab qolishda ham muhimdir. Bugungi kunda o‘zbek tilidagi diniy atamalarni to‘g‘ri qo‘llash va ularga to‘g‘ri ta’lim berish orqali jamiyatning diniy savodxonligini oshirish hamda diniy tushunchalarni aniq va mazmunli ifodalashga e’tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Diniy atamalarning o‘zbek tilidagi ifodasi o‘z milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda, ularning ma’nosini to‘g‘ri anglashda katta rol o‘ynaydi va bu bizning tilimiz va madaniyatimizning boyligini yana bir bor namoyon etadi.

Taklif va tavsiyalar:

1. **Diniy atamalarni to‘g‘ri tarjima qilish va sharhlash**: Diniy tushunchalar va atamalarni tarjima qilishda ularning mazmuni to‘liq ifoda etilishi uchun tilshunoslar va dinshunoslar birgalikda ishlashlari zarur. Arabcha atamalarni o‘zbek tilida to‘g‘ri va aniq ma’noda tushuntirish orqali jamiyatda diniy savodxonlikni oshirishga e’tibor berish lozim.
2. **Diniy atamalarni o‘zbek tilida ommaviy madaniyatga singdirish**: Ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va jamoatchilik orasida diniy atamalarning to‘g‘ri qo‘llanilishini targ‘ib qilish va ularning mazmunini tushuntirish ishlarini kuchaytirish kerak. Bu, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida diniy savodxonlikni oshirishda muhimdir.
3. **Diniy lug‘atlarni yaratish va yangilash**: Diniy tushunchalar va atamalarni izohlaydigan maxsus lug‘atlar, izohli qo‘llanmalar va ensiklopediyalarni yaratish va ularni zamonaviy ehtiyojlar va talablarga mos ravishda yangilab borish zarur.
4. **Diniy atamalarni o‘rganish uchun maxsus ta’lim dasturlari**: Ta'lim muassasalarida diniy atamalar va ularning milliy madaniy hayotdagi o‘rnini o‘rganishga qaratilgan maxsus kurslar, darslar va dasturlarni joriy etish lozim. Bu orqali yosh avlod diniy merosini to‘g‘ri tushunishi va qadrlashi ta’minlanadi.
5. **Jamoatchilik ongini yuksaltirish va noto‘g‘ri qo‘llanilishdan ogohlantirish**: Diniy atamalarning noto‘g‘ri ishlatilishi yoki ularning mazmunini noto‘g‘ri anglashni oldini olish uchun keng ko‘lamli ma'rifiy ishlar olib borilishi kerak. Bunda diniy idoralar, masjidlar, ma'rifat markazlari va ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish lozim.
6. **Ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish**: Diniy tushunchalar va atamalarning o‘zbek tilidagi ifodasi, ularning tarixiy rivoji va hozirgi davrda qo‘llanishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish va olimlar o‘rtasida ilmiy munozaralar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Bu tavsiyalar orqali diniy atamalarni o‘zbek tilida to‘g‘ri va keng ommaga yetkazish hamda diniy merosimizni asrash yo‘lida muhim qadamlar tashlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. AbdulHamid, A. (2012). **O‘zbek tili va islom dini atamalari**. Toshkent: O‘zbek Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Aliyev, N. (2010). **O‘zbek tili va islomiy tushunchalar**. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
3. Bobojonov, X. (2015). **Diniy atamalar va ularning tarjimasi**. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Qur’on (arabcha-o‘zbekcha tarjima). (2002). Toshkent: Sharq nashriyoti.
5. Rahmonov, U. (2018). **Diniy-falsafiy tushunchalarning lingvistik tahlili**. Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi.
6. Xudoyberdiyev, M. (2005). **Islom dinining o‘zbek tilidagi atamalari**. Toshkent: Sharq nashriyoti.
7. Karimov, A. (2008). **Diniy tushunchalar va ularning madaniy ahamiyati**. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
8. Salomov, O. (2014). **O‘zbek tilida diniy atamalarni ifodalashda tarjima muammolari**. “Til va madaniyat” jurnali, 3(12), 45-55.
9. Xayitov, I. (2011). **Diniy tushunchalar va ularning tarixiy rivoji**. Toshkent: Toshkent Islom Universiteti nashriyoti.
10. Yusuf, A. (2017). **Diniy atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qilish**. “O‘zbekiston Islom universiteti axborotnomasi”, 4(16), 78-85.

ONA TILIMIZNING O’ZBEK SHE’RIYATIDA TARANNUM ETILISHI XUSUSIDA

Latipov O.J.,

O’zbekiston Respublikasi

Jamoat xavfsizligi universiteti

Tillarni o’rganish kafedrasi dotsenti

Darhaqiqat, turkiy tilning qadimiy va shu bilan birga shonli tarixga ega ekanligi barchamizga ayondir. Birgina buyuk lug'atshunos olim Maxmud Qoshg'ariyning betakror "Devonu lug'otit turk" yoki buyuk shoir Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarlari fikrimizning yorqin dalilidir. Til masalasi millat g'ururi, uning sha'ni, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq bo'lgan qadriyatdir. Shu bois ona tilimizni Ona-Vatan kabi avaylab asrash hamda uning sofligini ta'minlash barchamizning muqaddas burchimizdir. Turkiy tilimizning naqadar qadimiy va buyukligi, serqirra va jozibadorligi mumtoz adabiyotimizda adiblarimiz tomonidan tarannum etilgan. G'azal mulkining sultoni bo'lmish Hazrat Mir Alisher Navoiyning

Chunki toptim ul kalom ichra kamol,
Turk alfozi bila surdum maqol…
Turk nazmida chu men tortib qalam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam…,

degan mashhur to'rtliklari ona tilimizga berilgan eng chiroyli ta'rifdir.

Nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyoti durdonalari orasida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan mashhur "Tarixi Muxammadiy" asarining muallifi Alixonto'ra Sog'uniy ona tilimizning istiqboli haqida qayg'urgan holda quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Milliy hokimiyatimizdan hozircha ajrab turgan bo'lsak ham, milliy hissiyotimizdan ajramay, uni saqlay olsak, kelajakda dushmanlarga yutilishdan o'zimizni qutqara olamiz. Endi bu maqsadga yetish uchun qo'yilgan masalalarning eng birinchi sharti til masalasidir. Agar biz til adabiyotimizni kengaytirib, uning qadr-qimmatini oshirib, boshqa madaniy tillar darajasiga yetqizur ekanmiz, mana bu chog'da millatimiz, milliy hissiyotlarimiz doimiy ravishda o'sib saqlang'usidir".

Hech qanday mubolag'asiz aytish mumkin-ki, ona tilimizning tarovatini kuylamagan adib topilmasa kerak. Jumladan, shoir Mirtemirning "Ona tilim" she'rida tilimizning naqadar muqaddas ekanligi, cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligi tarannum etilgan:

"Yobonlarning cheksizligi,
Ham samumi, ham hovuri,
Onajonlar allasidan,

Qo’z yoshidan, oq sutidan;
To’qaylarning tengsizligi,
Jilg’alarning sho’x g’ovuri,
Yigitlarning yallasidan,
Suluvlarning sukutidan —
Yo’g’rilgan til —
Ona tilim”.

Ona tilimizning shonli tarixi, uning sha’ni uchun davom etgan jangu-jadallar, uning umri boqiyligi to’g’risida mashhur o’zbek adibi Erkin Vohidovning quyidagi ajoyib satrlarini esga olmaslikning iloji yo’q:

“Kamalakdek rango-rang
Bo’lsin deb san’at, tillar,
Asrlarcha qildik jang,
Armon qildik ming yillar.
Beqadr bo’lsa, nahot,
Tillardagi tarovat!
Yo’qoldi bu kun, hayhot,
Qabrlarda halovat!
«Faust» yondi gurillab,
«Hamsa» o’tga tutashdi.
Bir sado jahon bo’ylab
Taraldi, tog’lar oshdi.
Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo’lmaydi.
Olam aytar:
Hech qachon
Ona tilim o’lmaydi!”

Til erkinligi, uning ravnaqi va taqdiri barcha ma’rifatli insonlarning diqqat markazida bo’lgan. Jumladan, O’zbekiston xalq shoiri, O’zbekiston Qahramoni, barcha kitobxonlar uchun birdek sevimli adibimiz Abdulla Oripov ona tilimizni madh etib shunday misralar bitmish:

Ming yillarkim bulbul kalomi

O’zgarmaydi, yaxlit hamisha.
Ammo sho’rlik to’tining holi
O’zgalarga taqlid hamisha.
Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she’rga solaman.
Sen yo’qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to’ti bo’lib qolaman!

Yana bir shoir Sa’dulla Hakim o’zining “Ona tilim” she’rida tilimizni elimizga, oilamizga, chin do’stga va abadiy quyoshga o’xshatadi:

Do’stga do’stu dugona tilim,
Begonaga begona tilim,
Beshigimda yagona tilim
Ona tilim.
Ota bo’lib otlangan tilim,
Ona bo’lib shodlangan tilim,
Bola bo’lib yodlangan tilim,
Ona tilim.
Boshimda bosh bor ekan, borsan,
Ko’zimda yosh bor ekan, borsan,
Toki quyosh bor ekan, borsan,
Ona tilim.

Barchamizga ma’lumki, milliy tilimizning taqdiriga qanday qismatlar bitilmagan edi, asrlar osha unga qanchadan-qancha tana toshlar otilmadi, Mustaqillikka erishgunga qadar qancha to’siqlardan o’tib, necha dovonlar oshmadi deysiz. Ulkan mas’uliyatni o’z bo’yniga olgan shoir Muxammad Yusuf barchamiz nomimizdan ona tilimizning o’tmishdagi ayanchli qismati uchun iztirobga to’la satrlar bitib, kechirim so’rashga jur’at qildi:

Garchi zug’um qilganlarni yoqtirmadim,
She’r yozdimu bo’lak ishni qotirmadim.
Tilim turib o’z tilimda gapirmadim,
Bir eslasam eziladi bag’ri-dilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Sen bo'lmasang nima bizga silliq she'rlar,
Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q derlar,
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.
Bir qarasam har shevangda ming jilolar
Har novdangda, har mevangda ming jilolar.
Qodiriylar, Cho'lponlar-u, Abdullolar,
Sening qaytgan kuning men tug'ilgan yilim,
Ona tilim, ey muqaddas Ona tilim.

Shunday ekan, har birimiz ota-bobolarimizdan bizga bebaho meros sifatida yetib kelgan, millat g'ururi va sha'ni bo'lmish betakror ona tilimizning ravnaqi uchun munosib hissa qo'shaylik, badiiy adabiyotga ixlosmand bo'laylik va keng dunyoga tarannum etaylik.

Adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. So'z chamani. T.: Akademnashr. 2020, 128 b.
2. Muxammad Yusuf. Saylanma. T.: Sharq. 2019, 384 b.
3. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. T.: Sharq. 2019, 688 b.

TIL VA UNING HAYOTIMIZDAGI O‘RNI

Mengliyeva Sunbula
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Tillarni o‘rganish kafedrasi o‘qituvchisi

Avvalambor, til har bir millatning ko‘zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayot, aks holda inqirozga mahkumdir. Tilning Onaga qiyoslanishi, Ona so‘zi bilan birikib kelishi bejiz emas, chunki inson o‘z onasini ko‘rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Bu fikrimizning isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqini keltirishimiz mumkin: “Kimda-kim

o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin”.

Ona tili – millatning ruhi, ma’naviyatidir. Tilga davlat timsoli, mulki sifatida qarash lozim. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. Sir emaski, Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy, Al Farg‘oniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Bobur Mirzo, Mirzo Ulug‘bek singari buyuk siymolarni yetishtirgan xalq tili yo‘qolish arafasiga kelib qolgan edi. Mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davrdayoq til to‘g‘risida qonun qabul qilinmaganda edi, o‘zbek tili ham tarix sahifalaridan joy olgan bo‘larmidi.

Mana bu yil o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 35 yil to‘lmoqda. Shu davr ichida o‘zbek tilining haqiqiy jozibasini anglashga, uning keng imkoniyatlaridan unumli foydalanishga va tilimizning fusunkor tarovatini dunyoga taratishga imkon yaratildi. Tilga milliy mustaqillik va o‘zlik ramzi sifatida qarashga, uning nafaqat vatanimiz sarhadlarida, balki dunyo bo‘ylab dovruq taratishiga munosabat yaxshilandi. “Davlat tili haqida”gi qonun ona tilimizning bor go‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug‘atlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so‘z va so‘z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo‘llaniladigan so‘zlarni o‘z ichiga olgan besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.

Shu o‘rinda statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo‘lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilinganligining guvohi bo‘lamiz. Ularning orasida o‘zbek tilining borligi uning naqadar sof, purma’no, jozibador va, albatta, mukammalligining yorqin dalilidir. O‘zbek tili AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya va shu kabi bir qator

davlatlarning 60 ga yaqin universitetlari va 100 dan ziyod maktablarida o‘rganilayotganligi tilimizning insoniy va xalqlararo aloqa, takomillashish va taraqqiyot vositasi sifatida xizmat qila boshlaganining namunasidir. Chunonchi, rossiyalik tilshunos olima, professor A.M.Kozlyanina “O‘zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador” deb bejiz ta’kidlamaganligini ham eslatib o‘tmoqchiman.

Afsuski, jamiatimizda o‘z ona tiliga bo‘lgan munosabatni har doim ham ijobiy baholab bo‘lmayapti. Masalan, barchamizga ma’lumki, ko‘chalarda do‘konlar, supermarketlar, turli xil ustaxona shoxobchalari, go‘zallik salonlari, turli xil osmono‘par binolar, bog‘chalarga qo‘yilgan nomlar o‘zbek tilida emas, balki boshqa xorijiy tillarda yozilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Va bundan ham achinarlisi, bu reklama yozuv taxtalari va bannerlaridagi reklama matnlarining jiddiy xatolar bilan yozilayotganidir. Tilga hurmatsizlik, va hatto, mensimaslik kayfiyatini eslatuvchi bunday hatti-harakatlarni oqlab bo‘lmaydi, albatta. Chunki, tilga e’tibor – elga e’tibor, deyishadi. Fikrimizcha, biz har qanday holatda ham tilimizni asrashga, uni boyitishga va himoya qilishga tayyor turishimiz kerak. Bu bizning ham ma’naviy, ham fuqarolik burchimiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Abdukamol Po‘latov,** “Til – millat ko‘zgusi” http://pravacheloveka.uz/oz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.10.2020 yildagi PF-6084-son “2020 – 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” https://lex.uz/docs/-5058351
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020-yil 20-oktyabr “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” https://lex.uz/docs/-5058351
4. Sherzod Yuldashev, “Til- millat ko‘zgusi”. https://sbtsue.uz/ru/news/view/314

5. Oyshajon Ametova, “Til – millat ko‘zgusi”, https://xs.uz/uz/post/til-millat-kozgusi

TIL – MILLAT KO‘ZGUSI, UNI ASRAB-AVAYLASH ESA BIZ YOSHLARNING BURCHIMIZDIR

Mo’ydinov Hamidullo Raxmatillo o’g’li
Andijon qishloq xo’jaligi va agrotexnalogiyalari instituti
«Gumanitar fanlar» kafedrasi assistenti
hamidullofalsafa@gmail.com
+99893 484 16 72

Annotatsiya: Tilning o‘zgarishi, millatning o‘zgarishi yoki rivojlanishini ham aks ettiradi. Til orqali jamiyatdagi o‘zgarishlar, yangi qadriyatlar, ijtimoiy jarayonlar va texnologiyalar haqida ma'lumot olish mumkin. Shunday qilib, til millatning rivojlanish jarayonini kuzatishga yordam beradigan "ko‘z"ga aylanadi.

Kalit so’z: Til – millat ko‘zgusi, ilm-fan, san’at, madaniyat, qadriyatlar, xulq-atvori va urf-odatlar

Til insoniyatning eng muhim muloqot vositasi bo‘lib, nafaqat aloqa qilish, balki milliy madaniyatni, tarixni, urf-odatlarni va qadriyatlarni saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Tilda millatning o‘ziga xosligi, uning ma'naviyati, dunyoqarashi aks etadi. Shunday ekan, til — bu millatning ruhidir, uning o‘zligini saqlovchi eng muhim omil. Shu boisdan, har bir millat o‘z tilini asrab-avaylashni, rivojlantirishni o‘zining eng muhim burchi deb bilishi lozim. Ayniqsa, yosh avlod tilni nafaqat o‘rganishi, balki uni himoya qilish, kelajak avlodlarga yetkazish uchun astoydil mehnat qilishi zarur. [2:1]

"Til – millat ko‘zgusi" degan ibora, tilning millatning o‘ziga xosligini, madaniyatini va tarixini aks ettirishi haqidagi fikrni ifodalaydi. Har bir xalqning o‘z tili orqali o‘zi haqida ma'lumot olish mumkin. Masalan, biror xalqning tarixiy voqealari, qadriyatlari, urf-odatlari til orqali namoyon bo‘ladi. Har bir so‘z, ibora, grammatik qoidalar, tilning

so‘z boyligi, o‘ziga xos tuzilishi millatning ruhini, uning o‘tmishini, madaniy kodlarini ifodalaydi.

Misol uchun, o‘zbek tilida ko‘plab qadriyatlarni ifodalovchi so‘zlar mavjud. Bu so‘zlar faqat o‘zbek xalqining o‘ziga xos dunyoqarashini, madaniyatini, his-tuyg‘ularini ifodalash bilan cheklanmay, balki uning tarixiy rivojlanish jarayonini ham aks ettiradi. Millatning tilini bilish, uning o‘tmishini va madaniyatini bilish bilan tengdir.

O‘zbek tilini asrab-avaylash va rivojlantirish milliy kimlikni saqlashning eng muhim vositalaridan biridir. Tilning o‘ziga xosligini yo‘qotishi, o‘z tarixini unutishiga olib kelishi mumkin. Agar millat o‘z tilidan voz kechsa, uning madaniyati va tarixi ham yiroq ketishi mumkin. Aksincha, tilni rivojlantirish va avaylash orqali millat o‘z o‘tmishini saqlab qoladi va yangi avlodlarga yetkazadi.[1:1]

Ayniqsa, yoshlar uchun tilni asrab-avaylash muhimdir, chunki ular kelajakda millatning madaniyatini, tarixini va qadriyatlarini saqlovchi va rivojlantiruvchi avlod bo‘lishi kerak. Yoshlar tilni nafaqat o‘rganish, balki uning barcha xususiyatlarini chuqur anglash va uni kundalik hayotda faol qo‘llash orqali uni himoya qilishlari kerak.

Taklif: Yoshlar o‘zbek tilini chuqur o‘rganishga, uning boy va rang-barang so‘z boyligini kengaytirishga harakat qilishlari lozim. Bu tilni kundalik hayotda, ilmiy va madaniy sohalarda samarali foydalanish uchun zarur.

- Tilga bo‘lgan hurmatni oshirish uchun yoshlarni unga nisbatan mas’uliyatli va mulohazali bo‘lishga undash kerak. Milliy tilni asrab-avaylashni yoshlarga majburiyat sifatida tushuntirish zarur.
- Yoshlar o‘rtasida tilni rivojlantirish va unga bo‘lgan qiziqishni oshirish uchun turli xil faoliyatlarni tashkil qilish muhimdir. Masalan, turli tanlovlar, til bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish, ommaviy axborot vositalarida til masalalariga alohida e’tibor qaratish.
- O‘zbek tilini mahalliy va xalqaro miqyosda keng targ‘ib qilish, o‘zbek tilini boshqa tillarda o‘rganishning ahamiyatini tushuntirish yoshlar uchun katta ahamiyatga ega. Bu nafaqat tilni saqlash, balki

milliy madaniyatni keng dunyoga tanitishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Tavsiyalar:

* O‘zbek tilida ilmiy ishlar, maqolalar yozishni, adabiyot o‘qishni ko‘paytirish.
* O‘zbek tilida onlayn kurslar, seminarlar va ma'ruzalarni tashkil qilish.
* Tillarni o‘rganish jarayonida milliy adabiyotga, san'atlarga va madaniyatga alohida e'tibor qaratish.
* Til o‘qish va yozish bo‘yicha tanlovlar o‘tkazish. Masalan, "Eng yaxshi yozuvchi", "Eng yaxshi nutq so‘zlash" kabi tanlovlar.
* O‘zbek tilida blog yuritish yoki kontent yaratish faoliyatlarini kengaytirish.
* Yoshlar o‘rtasida tilga oid ko‘rgazmalar, musiqa, teatr va kino tadbirlarini tashkil qilish.
* Talabalar va yoshlarning madaniyatini rivojlantiruvchi forumlar va konferensiyalarni tashkil etish.

Yoshlarning tilni asrab-avaylashdagi roli nihoyatda katta. Ular millatning kelajagi, uning o‘zligini saqlovchi kuchdir. Yoshlar o‘z milliy tilini chuqur o‘rganish, uni kundalik hayotda ishlatish, ilm-fan, san’at, madaniyat sohalarida faol foydalanish orqali tilni rivojlantirishga hissa qo‘shishlari zarur. Bugungi kunda texnologiyalar va globalizatsiya jarayonlari tilning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Ko‘plab yoshlar o‘z milliy tillarini kamroq ishlatib, ingliz tiliga yoki boshqa global tillarga ko‘proq murojaat qilmoqdalar. Biroq, tilni saqlash – bu millatning o‘zligini saqlashdir. Shuning uchun har bir yoshga tilini asrab-avaylash, unga hurmat ko‘rsatish va uni rivojlantirishni o‘zining shaxsiy burchi deb bilishi kerak. [3:1]

Bugungi kunda mamlakatimizda tilni rivojlantirish va unga e'tibor qaratish borasida bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbek tilini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlari, til va madaniyatni saqlash borasidagi tashabbuslar yoshlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

Yoshlar o‘z bilim va imkoniyatlarini tilni asrab-avaylash va rivojlantirishga yo‘naltirish orqali millatni yanada kuchliroq qiladi.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni takidlash joizki, "Til – millat ko‘zgusi" degan ibora millatning ruhini, tarixini, madaniyatini aks ettiruvchi juda to‘g‘ri fikrdir. Har bir millatning o‘z tili orqali o‘ziga xosligini, tarixini va madaniyatini anglash mumkin. Shuning uchun tilni asrab-avaylash va rivojlantirish, ayniqsa yoshlar uchun burchdir. Yoshlar tilni o‘rganish, uni kundalik hayotda faol qo‘llash va rivojlantirish orqali milliy kimlikni saqlashga hissa qo‘shishlari kerak. Milliy tilga hurmat, uning rivojlanishiga yo‘naltirilgan sa'y-harakatlar bizni o‘zimizning tariximiz va madaniyatimizni yuksaltirishga olib keladi. Tilning millatdagi o‘rni nihoyatda katta va yoshlarning bu boradagi mas’uliyati ham juda muhim. "Til – millat ko‘zgusi" degan fikrni hayotga tadbiq etish, uni asrab-avaylash va rivojlantirish har bir yoshning burchidir. Yoshlar o‘z milliy tilini yaxshi o‘rganib, undan faol foydalanib, uni saqlash va rivojlantirish borasida o‘z hissalarini qo‘shishlari kerak. Shunday qilib, tilni asrab-avaylash — bu millatning o‘zligini, tarixini va madaniyatini saqlashning asosi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbek tilini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi farmoni** (2020).
2. **Sharifov, A.** "Milliy madaniyat va til: Tarixiy tahlil", T.: Fan, 2019.
3. **Xudoyberdiyev, M.** "O‘zbek tilining rivojlanishi va jamiyatdagi o‘rni", T.: O‘zbekiston, 2021.
4. **Yusufov, B.** "Til va milliy kimlik: Tezislar va tahlillar", T.: Ma’rifat, 2018.

TIL – MILLAT KO‘ZGUSI, MILLIY G‘URURI, MILLIY IFTIXORDIR

Jamoat xavfsizligi universiteti
Tillarni o‘rganish kafedrasi
o‘qituvchisi Sh.I.Musayeva
Jamoat xavfsizligi universiteti
381 b guruh kursanti ***Mamajonova Dilnavoz***

Til – milliy g‘urur, milliy iftixordir. Til muloqot vositasigina bo‘lib qolmay, u insonning ichki olami, madaniyatini ifodalaydi, dunyoni teran idrok qilishiga ko‘maklashadi, dunyoqarashi va kamolotini belgilab beradi. Shuning uchun ham yer yuzida rivojlanaman degan davlat borki, o‘z tilining mavqeini ko‘tarishga harakat qiladi.

Ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. O‘zbek tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so‘ng barcha davlat hujjatlari o‘zbek tilida yuritila boshlandi, gazeta va jurnallarning o‘zbek tilida chop etilishi yo‘lga qo‘yildi. Shu o‘rinda statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratsak: dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo‘lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o‘zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal va jozibadorligining yorqin dalilidir. Rossiyalik tilshunos olima, professor A. M. Kozlyanina “O‘zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador”[4] deb bejiz ta’kidlamagan edi.

O‘zbek tili AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya va shu kabi bir qator davlatlarning 60 ga yaqin universitetlari va 100 dan ziyod maktablarida o‘rganilayotgan bir paytda biz qurilgan binolarimizning, maishiy xizmat ko‘rsatish joylarimizning, hattoki yangi ochilayotgan ta’lim maskanlarimizning ingliz yoki rus tillarida nomlab o‘tirganligimizni qanday tushunish kerak?!

Aynan shu yerda BMT vakillarining til borasida keltirgan faktini eslab o‘tsak: “Qachonlardir odamlar so‘zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo‘lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6

[4] **Oyshajon Ametova, “**Til – millat ko‘zgusi**”, https://xs.uz/uz/post/til-millat-kozgusi**

mingta til mavjud bo‘lib, ularning 90 foizi yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so‘zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo‘lsa, ayrimlari bundan bebahradir. Masalan, Afrika tillarida so‘zlashuvchi aholining 80 foizi hamon o‘z yozuvlariga ega emas. Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan so‘ng hozir muomalada bo‘lgan tillarning o‘ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan”[5].

YuNESKO tomonidan **21 fevral – Xalqaro ona tili kuni** deb e’lon qilingan.

Bu 1952 yil 21 fevralda bo‘lib o‘tgan voqea – Bangladeshning Dakka shahrida o‘z ona tili – bengal tilini davlat tili darajasiga ko‘tarish va uni himoya qilish maqsadida shahar ko‘chalariga chiqqan talabalarning politsiya xodimlari tomonidan o‘qqa tutilishi bilan bog‘liq. Mazkur sana 2000 yildan buyon xalqaro miqyosda nishonlab kelinmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti **2022 yilni – Ko‘p tilli ta’limda texnologiyadan foydalanish: muammolar va imkoniyatlar yili**[6] deb e’lon qilgani ham bejiz emas.

Xalqaro ona tili kunining mazmun-mohiyatida har bir xalqning o‘z milliy tafakkuri, ma’naviyati, ruhiyatining o‘zagini tashkil etadigan tilga alohida muhabbatning belgisi o‘z aksini topadi. Mazkur kun ona tili bayrami sifatida nishonlanar ekan, shu munosabat bilan har bir insonning o‘z Vatani va ona tiliga bo‘lgan muhabbati, hurmat-ehtiromi hamda uni qadrlash tuyg‘ulari yangilanadi.

Milliy til – xalqlar va millatlarning asosiy muloqot manbai hisoblanadi. Til xalqlarni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o‘qitadi, urf-odat, an’ana va madaniyatlarni saqlaydi, avloddan-avlodga o‘tishini ta’minlaydi. U – mamlakat timsoli, qimmatbaho mulkdir, agar til

[5] Abdukamol Po‘latov, “Til – millat ko‘zgusi” http://pravacheloveka.uz/oz.

[6] Abdukamol Po‘latov, “Til – millat ko‘zgusi” http://pravacheloveka.uz/oz.

madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog‘ tushishi turgan gap.

Til – millat ko‘zgusi, deb bejiz aytishmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko‘hna va serqirra madaniyati o‘zbek tili – ona tilimiz ta’sirida shakllangan.

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda barcha soha va tarmoqlar kabi ona tilimiz qadri va nufuzini yanada oshirish borasidagi siyosat va amaliy ishlarimiz ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Buning tasdig‘i o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va obro‘-e’tiborini tubdan oshirish bo‘yicha qabul qilingan tarixiy farmon va qarorlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Davlatimiz madhiyasi xalqaro maydonlarda o‘zbek tilida yangray boshladi. Ayniqsa, ona tilimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbarida, ulkan siyosiy sammit va uchrashuvlarda baralla yangrab, tinchlik, do‘stlik va hamkorlik vositasiga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

O‘zbekiston Prezidenti 2019-yil 21-oktyabrda “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Unga muvofiq, “2020 – 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”[7] tasdiqlandi.

2020-yil 20-oktyabrda esa Prezidentimizning “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[8]gi farmoni e’lon qilindi. 21 oktyabr – O‘zbek tili bayrami kuni, deb belgilandi.

Ona tilimizning xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, davlat tilini hayotga to‘laqonli tatbiq etish barchamizning fuqarolik burchimizdir.

---

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.10.2020 yildagi PF-6084-son “2020 – 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” https://lex.uz/docs/-5058351

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020-yil 20-oktyabr “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” https://lex.uz/docs/-5058351

Hozirgi kunda Taraqqiyot strategiyasi doirasida Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu intilish va harakatlarimiz hal qiluvchi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu yo‘lda milliy o‘zligimiz, g‘urur-iftixorimiz timsoli bo‘lgan ona tilimiz, hech shubhasiz, beqiyos kuch-qudrat va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Bugun chet tillarini chuqurroq o‘rganishimizni davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Xorijiy davlatlardan mamlakatimizga ko‘plab investor va tadbirkorlar kelishmoqda, ular bilan turli sohalar bo‘yicha hamkorliklar o‘rnatilmoqda. Turizmni rivojlantiryapmiz, ko‘plab yoshlar chet el universitetlarida o‘qishga katta qiziqish bildirishmoqda. Mamlakatimizda chet tillarini o‘qitish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Chet tillarisiz katta muvaffaqiyatlarga erishish mushkul. Biroq, chet tillarini o‘rganish ona tilimizga e’tiborsizlik hisobiga bo‘lmasligi kerak. Zero, XX asr boshida olti tilli - o‘zbek, arab, fors, hind, turk, va rus tillarida lug‘at tuzgan Isoqhon Ibrat aytganlaridek, “Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat - bu vataniy ishdir”[9]. Biror xorijiy tilni kamsitmasdan, til o‘rganishni qadrlagan va qo‘llab-quvvatlagan holda o‘z ona tilimiz sofligini saqlashimiz va dunyoda muhim til sifatida rivojlanishi uchun astoydil harakat qilmog‘imiz kerak. O‘zbek tilini yanada rivojlantirish, uni dunyoga tanitish nafaqat tilshunos olim, shoir, yozuvchi, san’atkor-u suxandonlarning vazifasi, balki har bir millat vakilining ham burchi bo‘lmog‘i lozim. Ona tilimiz faqat so‘zlashuv tili bo‘lib qolmasdan, mamlakatimizda rasmiy ish yuritish tili, ilm-fan tili bo‘lishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozimligini butun vujudimiz bilan his etishimiz lozim. Bunday vatanparvar harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz bilanoq o‘zbek tilini rivojlantirishga bevosita ulkan hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

[9] **Sherzod Yuldashev, “Til- millat ko‘zgusi”. https://sbtsue.uz/ru/news/view/314**

Zero, buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: «Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti tili va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur»[10].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Abdukamol Po‘latov,** “Til – millat ko‘zgusi” http://pravacheloveka.uz/oz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.10.2020 yildagi PF-6084-son “2020 – 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” https://lex.uz/docs/-5058351
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020-yil 20-oktyabr “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” https://lex.uz/docs/-5058351
4. **Sherzod Yuldashev, “Til- millat ko‘zgusi”. https://sbtsue.uz/ru/news/view/314**
5. **Oyshajon Ametova, “**Til – millat ko‘zgusi**”, https://xs.uz/uz/post/til-millat-kozgusi**

EFFECTIVE TECHNIQUES FOR DEVELOPING PHONETIC COMPETENCE

Namozova Dilnoza Berdimurotovna,
Rashidova Munavvar Xaydarovna
University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan, senior teachers at the Department of Languages

[10] **Oyshajon Ametova, “**Til – millat ko‘zgusi**”, https://xs.uz/uz/post/til-millat-kozgusi**

Annotation: This article describes different motivating strategies of how to raise the interest of students to English language acquisition by organizing conversation groups and developing phonetic competence of students.

Keywords: motivation, conversation groups, communication, organization.

Teachers of English as a foreign language face a situation that language teachers lead their students down the road of pattern practice, only to find themselves confronted by a great chasm at the end. On the other side lies real communication, but the group is stranded on the side of drills because the teacher sees no strong bridge across.

Students are not interested only in learning to read and write the new language, they have a desire to speak it. Most students are eager to converse in the new language, and conversation practice therefore assumes primary importance in their learning experience.

In directing conversation session for students of English as a foreign language, we, teachers, must help students to move from pseudo-communication, in which their use of English fictitiously concocted and predictable, to communication where they expresses their ideas needs in the context of reality. During the early stages of conversation practice, you are bound to maintain a fairly controlled situation in which the student interacts with you and other students within the constraints imposed by is limited knowledge of the language. During later stages, you will gradually remove the controls until they are eliminated altogether, and the student enters a realm of real communication.

Setting the stage for conversation practice

Before students embark on conversation practice, obviously they must be familiar with some grammar patterns and vocabulary words. If students have learnt the basic patterns of English in a formal classroom context, these were probably taught through one of two major methods or a combination of both: the audio-lingual approach, and cognitive-code learning.

***The Audio-Lingual Approach*.** This language teaching approach is based on the premise that learning a new language means learning a new system of habits. Basic assumptions in the audio-lingual approach are:

- A linguistic analysis of the new language.
- The new language should be leant through imitation and analogy.
- Every language is patterned. Students must practice these patterns through intensive drills such as repetition of dialogues or through exercises.
- The new language habits must become automatic.
- Allowing the student the possibility of making errors should be avoided, since it is thought that mistakes will lead to bad habits.
- Listening and speaking are viewed as primary activities, and reading and writing secondary.
- Function words (words like articles, prepositions or auxiliary verbs that tie other words together) should receive greater attention in the initial stage of language learning than content words (nouns, adjectives, full verbs which have lexical meaning).
- Audio-visual aids can assist the student in his formation of new language habits.
- Use of the student's native language for explanations of new vocabulary and syntax should be avoided.

***Cognitive-Code learning*.** The major implications in cognitive-code learning are:

- A language is a rule-governed system. Students must learn the rules in a new language through analysis in order to use the language competently.
- Language learning is more than a matter of habit formation; it is a creative process, and therefore the student should be given the opportunity to be as mentally active as possible in all assigned work.
- Drills and exercises should be meaningful.
- The student's creative involvement in the learning process is viewed as more important than the avoiding of errors.

- Reading and writing should be taught at early stages along with listening and speaking.
- Occasional use of the student's native language for explanation of new grammar and vocabulary.

Kinds of conversation groups

Directed conversation practice for students learning English may occur in regular classroom surroundings or in non-academic environments such as conversation clubs or social gatherings at someone's home. Every day thousands of these conversation sessions take place around the world, reflecting the tremendous interest that people everywhere have in learning to speak English.

***Academic Conversation Groups*.** English teaching programs vary but if directed conversation practice is scheduled, it is likely to appear in one of two forms: a brief session or sessions during a given class hour, or a session covering an entire class hour. If students are enrolled in an intensive program where they have four hours of class, one of the class hours may be devoted to conversation.

***Social Conversation Groups*.** English conversation clubs are organized by teachers and students who want to practice English in a more congenial atmosphere than the classroom may allow. Meetings follow a regular schedule-once a week, for instance. Vital to their success is a dynamic leader who can skillfully arrange entertaining activities such as debates, film showings or games that will stimulate all members to use their English.

Motivational Factors

Most students study English because they believe it will benefit them in one way or another. They see English as a means to earn more money, to fulfill certain education requirements, to travel abroad, to gain access to the culture of English-speaking nations, or simply to meet more people. But even though students' initial motivation may be quite strong, under the strain of learning a new language with all its complexities or pronunciation, syntax. And vocabulary, motivation may wane.

Once your students develop a strong group identity, you will find that they are more motivated to express themselves in English, to become real participants in the activities you plan for them, and ultimately to function as confident English speakers in the world outside the classroom.

References:

1. Namozova D. B. Development of phonetic competence //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 413-415.
2. Namozova D. B. The problems of phonetic interference in speech of cadets //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 192-196.
3. Намозова Д. Б. Peculiarities of phonetic competence development in conditions of artificial multilingualism //инновации в педагогике и психологии. – 2021. – Т. 4. – №. 1.
4. Berdimurotovna N. D. Difficulties cadets face while practicing listening and the ways of eliminating them //International Journal of Research and Development. – 2021. – Т. 6. – №. 5. – С. 36-38.
5. Namozova Dilnoza Berdimurotovna. 2020. New methods in teaching a foreign language to students of non-linguistic universities. EPRA International Journal of Research and Development. Volume 5. Issue 5. pp.84-86
6. Namozova Dilnoza Berdimurotovna. 2020. The role and place of English in international communication. EPRA International Journal of Research and Development. Volume 5. Issue 4. pp.141-144
7. Namozova Dilnoza Berdimurotovna. 2021. Features of military terminology in modern conditions. EPRA International Journal of multidisciplinary Research. Volume 7. Issue 3. pp.7-9
8. Namozova Dilnoza Berdimurotovna. 2021. Peculiarities of phonetic competence development in conditions of artificial multilingualism. Инновации в педагогике и психологии. Номер 4, Выпуск 1. С.82-86.

9. Намозова Дилноза Бердимуротовна. 2021. К вопросу о фонетической компетенции. «Innovative scientific and practical research of scientists and youth of Uzbekistan» Part-10. pp.266-267.
10. Namozova Dilnoza Berdimurotovna. 2021. Phonetic competence development. National researches of Uzbekistan: Conferences series: Part-10. pp. 56-57.
11. Rashidova Munavvar Xaydarovna, Namozova Dilnoza Berdimurotovna. 2021. Effective methods of teaching. Materials of the republican 33-multidisciplinary online distance conference on “Scientific and practical research in Uzbekistan”. Part-10. pp. 23-24.
12. D.B.Namozova The problems of phonetic interference in speech of cadets //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 3 (7). – С. 192-196.
13. Наркулова И. Р. К. СВОЙСТВА ГЛАГОЛОВ АКТИВНОГО ВОСПРИЯТИЯ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 28. – С. 421-423.
14. Najmutdinova M., Narkulova I. R. Q. O’zbekiston Respublikasi suverenligining huquqiy asosi //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 895-899.
15. Булычёва М. Ф. Учебные экскурсии для формирования лингвокультурологической компетенции курсантов //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 808-813.
16. Булычёва М. Ф., Валиева Х. А. Принципы и правила проведения занятия в малых группах на примере военного вуза //Наука и образование сегодня. – 2019. – №. 12 (47). – С. 72-74.
17. Булычёва М. Ф., Зайнутдинова Д. Т. К вопросу о методических рекомендациях по работе с авторской песней //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 735-747.

18. Булычёва М. Ф. Актуальность изучения творчества эрнеста хемингуэя на сегодняшний день //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 298-304.
19. Utenbaeva, G. M. "The importance of listening skills in teaching Russian language to the cadets of military institute." EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), INDIA SJIF Impact Factor 6: 18-21.
20. Утенбаева, Гульжазира Мухтаровна, and ООРЯ ВВОУ. "Руз с использованием инновационных педагогических технологий с целью совершенствования их стратегической компетенции." (2021).
21. Rashidova Munavvar Xaydarovna. 2021. Sociolinguistic competence as the main component of intercultural communicative competence. EPRA International Journal of multidisciplinary Research. Volume 7. Issue 3. pp.4-6
22. Rashidova Munavvar Xaydarovna. 2021. On linguistic competence as the component of communicative competence. EPRA International Journal of multidisciplinary Research. Volume 7. Issue 3. pp.165-167

TEACHING PRONUNCIATION

Namozova Dilnoza Berdimurotovna,
Rashidova Munavvar Xaydarovna,
Department of foreign languages
The University of Public safety of the Republic of Uzbekistan

Annotation. The article explores the features of teaching the pronunciation part of speech in the conditions of contact of three or more languages. These conditions are referred to as artificial multilingualism. The goal of teaching phonetics in artificial multilingualism, as well as in teaching the first foreign language, is to form phonetic competence, which includes specific skills (auditory and pronunciation), knowledge and skills. Special attention is paid to the interaction of phonetic skills of

contacting languages. The result of this interaction is phonetic interference.

Key words: phonological signs, articulatory base, foreign language accent, phonetic skill, phonetic competence, artificial multilingualism, pronunciation

In the conditions of linguistic lyceums, linguistic universities and faculties, in the study of foreign languages, a situation of artificial multilingualism develops, by which we mean proficiency in two or more foreign languages as a result of purposeful learning. This type of multilingualism is characterized by "asymmetric communicative competence in relation to languages in contact and the controlled nature of its formation".

Within the framework of the competence-based approach, the goal of teaching a foreign language (first, second, etc.) is communicative competence, which is the basis for the development of multilingual competence. Multilingual competence should be understood as a network of complex relationships of knowledge and linguistic experience that a person acquires gradually and in stages. An integral component responsible for the competent design of an utterance is linguistic competence, consisting of phonetic, lexical, and grammatical.

Phonetic competence includes phonetic skills, knowledge and ability to perceive and reproduce the following elements:

- phonemes and their implementation in a specific context (allophones);
- phonetic signs that distinguish some phonemes from others (sonority, nasality, labialization, etc.);
- prosody; the phenomena of assimilation at the moment of articulation, reduction of unstressed vowels, phrasal stress and rhythm; intonation, etc.

The importance of the pronunciation side of speech is due to its entry into all types of speech activity. For example, as a component of speaking, pronunciation can make words easier or more difficult for the listener to recognize. The communicative significance of the pronunciation side of

speaking is to give clarity to the oral text. In listening, the pronunciation side of speech is directly involved in the process of perception. If the student perceives the spoken text incorrectly, he has difficulties in identifying, understanding and interpreting the text, i.e. insufficient level of phonetic competence makes it difficult to understand speech by ear.

In the field of phonetics, the influence of the native language on the studied foreign language is more pronounced than at other levels of the language. Difficulties in mastering the sounds of a foreign language are explained by the interference of the native language.

O. A. Yamshchikova understands phonetic interference as “violation (distortion) of the secondary and subsequent language system and its norms as a result of interaction in the speaker's mind of phonetic systems and pronunciation systems of two or more languages”. There is an interference of auditory and pronunciation skills formed on the basis of interacting systems. Pronunciation is the most automated area of the language. In mastering pronunciation, skill plays a decisive role. Phonetic skills provide the ability to correctly perceive the audible sounds of foreign language speech and reproduce them adequately to the existing norm.

The depth and amount of interference can vary. The result of phonetic interference is a foreign language accent, which is characterized as "substitution of unknown sounds and unusual combinations of sounds with their own familiar ones and rethinking of words with their morphological composition and their meanings according to the skills of their language".

Classical phonological models are based on the concept of "phonological sieve" by N.S Trubetskoy. N.S. Trubetskoy compared the phonological system of language to a sieve through which everything that is heard is sifted. When an individual hears speech in another language, he involuntarily applies the phonological filter of his native language to analyze what he heard. Due to the fact that the perception filter is not adapted to the new language, numerous errors and misunderstandings arise. The presence of the so-called foreign accent N.S. Trubetskoy connected not with the fact that the individual cannot pronounce a certain

sound, but rather with the fact that he does not distinguish, interpret incorrectly and does not correct this sound.

The sounds of a foreign language are assimilated with the phonological categories of the native language. The named erroneous interpretation is due to the difference in the phonological structures of the native and foreign languages. Hence the need to develop auditory differential sensitivity and train phonemic hearing.

W. Weinreich distinguishes the following types of phonetic interference:

1) insufficient differentiation - mixing of two phonemes of the secondary system, as a result of which similar units of the primary do not differ as special phonemes;

2) excessive differentiation - the imposition of phonemic differences of the primary system on the sounds of the secondary, which are a variant of one phoneme;

3) misinterpretation - distinguishing phonemes of the secondary system according to features that are relevant for the primary system, and for the secondary they are secondary or redundant;

4) substitution - the substitution of units of the secondary system with units of the primary.

From the above, an important methodological conclusion follows: at the stage of presenting a new sound, it is necessary to make a clear differentiation, to achieve correct interpretation, not being limited to imitation of the sound.

To master the phonetic base of the language being studied, it is necessary, first of all, to master the articulatory structure typical for the native speakers of this language. The articulatory mode means the habitual position of the organs of speech at the moment when the speaker does not perform articulatory movements.

Acquaintance with the way of speech organs is a kind of "tuning" to a certain way of pronunciation. Therefore, we consider it expedient to devote the very first lesson on a new language to the formation of a holistic idea of its phonetic system.

Since pronunciation skills are formed on the basis of the articulatory base of the language, it is necessary to consider the features of the articulatory bases of all contacting languages in order to identify potentially complex phonetic elements, explain and remove existing difficulties. The articulatory base is understood as "a set of movements and positions of the pronunciation organs that are customary for a given language, the formation of which depends on the phonemic system of the language and, which is especially important, on the differential features used in it".

Immersion in a new language occurs from the first lesson. The features of the articulatory base of the corresponding language can be presented using the example of the alphabet. Acquaintance with the articulatory base of a new language occurs in the following sequence.

1. Each letter is spelled out and explained. Writing letters and paying attention to the differences are very important, since the developed skill of writing letters consistently interferes.
2. When explaining the pronunciation of each letter with transcription, comparisons of the studied language with the native and first (native, first and second) foreign languages are made when necessary.

For clarity, you can use articulation schemes. Thus, there is an acquaintance with almost all the features of the articulatory base in practice.

Having disassembled the alphabet, students receive memorization as homework. In the next lesson, the alphabet is checked and corrected. Further, the theoretical material on the features of the articulatory base is analyzed. Since in practice, students have already become familiar with the new articulatory base, the theoretical material is perceived by them in a natural way.

REFERENCES:

1. Chernichkina E.K. Artificial bilingualism: linguistic status and characteristics: author. Volgograd, 2007.

2. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment / Department of Modern Languages of the Directorate of Education, Culture and Sport of the Council of Europe -

M.: Publishing house of Moscow State Linguistic University, 2003. p.256.
3. Rashidova Munavvar Xaydarovna. Recommendations on the use of scaffolding technology in English classes. Science and education. 2022. Volume 3. Issue 9. pp. 459-461.
4. Rashidova Munavvar Xaydarovna, Namozova Dilnoza Berdimurotovna. Teaching technical subjects through English. Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: даврий анжуманлар: 10-қисм. 32-б.
5. Utenbaeva, G. M. "The importance of listening skills in teaching Russian language to the cadets of military institute." EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), INDIA SJIF Impact Factor 6: 18-21.
6. Утенбаева, Гульжазира Мухтаровна, and ООРЯ ВВОУ. "РУЗ С Использованием инновационных педагогических технологий с целью совершенствования их стратегической компетенции." (2021).
7. Наркулова И. Р. К. Профессионально-ориентированное обучение русскому языку курсантов юридического профиля на основе интерактивной программы //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 1348-1352.
8. Закирова А. О., Наркулова И. Р. Қ. Роль русского языка в работе сотрудников органов внутренних дел //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 737-740.
9. Булычёва М. Ф. Учебные экскурсии для формирования лингвокультурологической компетенции курсантов //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 808-813.
10. Булычёва М. Ф. Применение на начальном этапе различных видов наглядности //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 751-758.

THE ROLE OF THE UZBEK LANGUAGE IN FOSTERING PATRIOTISM AND ACTIVE CITIZENSHIP AMONG YOUTH

Nortojiyev Mukhammad Anvar o'g'li,
The University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan,
Mukhammadnortojiev@gmail.com

Abstract: The Uzbek language is not just a means of communication; it is a vital part of our national identity, encapsulating our culture, history, and collective values. In a rapidly globalizing world, where many languages and cultures coexist, the importance of nurturing one's own language has never been more critical. The Uzbek language serves as a conduit for expressing our traditions, beliefs, and social norms. This thesis explores how the Uzbek language fosters patriotism among youth, enhances their personal and professional development, and promotes effective communication skills, ultimately contributing to a more engaged and responsible citizenry.

Fostering Patriotism

Language is one of the most powerful tools in shaping a person's identity. It is through language that individuals connect with their culture and heritage. For young people in Uzbekistan, learning and using the Uzbek language cultivates a profound sense of belonging to their homeland. Engaging with literature, poetry, and cultural narratives in Uzbek deepens their understanding of their roots, instilling pride in their heritage [1]. This connection is especially vital in an era when globalization often leads to the erosion of local cultures.

Educational institutions play a crucial role in this process. Schools and universities must prioritize the teaching of the Uzbek language, integrating its rich literary and cultural context into the curriculum. Language education should go beyond grammar and vocabulary; it should include discussions on cultural history, folklore, and the contributions of notable Uzbek writers and thinkers [2]. By doing so, students not only learn the language but also appreciate its significance as a cultural cornerstone.

Patriotism, defined as love for one's country, is deeply intertwined with the language one speaks. The Uzbek language allows youth to express their love for their nation in a way that resonates with their cultural identity. It fosters unity and cohesion, as shared language promotes a sense of community. Youth who are proficient in their native language are more likely to engage in community activities, participate in national celebrations, and contribute to the social fabric of their country [3].

Personal Development

The Uzbek language serves as a cornerstone for personal development among youth. Mastering a language enhances cognitive abilities, critical thinking, and creativity. Through effective communication in Uzbek, young individuals develop the skills to articulate their thoughts clearly and persuasively. These skills are not only crucial for academic success but also for personal relationships and future employment [4].

Furthermore, language learning fosters emotional intelligence. Young people learn to express their emotions and thoughts through words, which helps them navigate their personal relationships more effectively. The ability to communicate one's feelings and ideas fosters empathy, understanding, and social awareness. In today's interconnected world, these qualities are essential for building strong, supportive communities.

In addition to personal relationships, proficiency in the Uzbek language enhances youth's engagement in societal issues. Young people who can articulate their thoughts and opinions in their mother tongue are better equipped to participate in discussions about social justice, environmental concerns, and national policies. By fostering a culture of dialogue and debate in educational settings, we encourage students to think critically about their society and their role within it [5].

Professional Competencies

In the context of a globalized economy, the ability to communicate effectively in one's native language remains essential. Education in the Uzbek language prepares youth for success in their professional lives. It equips them with the necessary skills to navigate both local and international job markets effectively. As businesses increasingly seek to

engage with local communities, professionals who are proficient in the Uzbek language can bridge cultural gaps and foster better relationships.

Employers often value candidates who can communicate fluently in the local language, as it demonstrates not only linguistic skills but also an understanding of cultural nuances. This is particularly important in fields such as education, healthcare, and public service, where effective communication can significantly impact service delivery and community engagement. Moreover, encouraging the use of the Uzbek language in professional contexts reinforces cultural identity and values. Businesses that promote the use of the local language in their operations contribute to the preservation of the language and culture. This, in turn, creates a more inclusive environment where employees feel valued and understood

Speech Culture

Improving speech culture within the Uzbek language is vital for developing high-quality communication skills among the youth. A strong speech culture goes beyond the correct use of grammar and vocabulary; it also involves the cultivation of respect, empathy, and understanding in communication. Young people must learn the importance of active listening, constructive criticism, and respectful dialogue. These skills are essential for fostering a more engaged citizenry capable of participating in democratic processes and community initiatives.

Educational institutions can play a pivotal role in enhancing speech culture by incorporating public speaking, debate clubs, and language arts programs into their curricula. These activities not only promote fluency in the Uzbek language but also encourage confidence and poise in communication. Young individuals who engage in such programs are better prepared to represent their ideas and contribute meaningfully to societal discussions.

Furthermore, fostering a culture of respectful communication can lead to a more tolerant and understanding society. In a multicultural nation like Uzbekistan, where various ethnicities and languages coexist, promoting a respectful dialogue in the Uzbek language can help bridge cultural divides and enhance social cohesion. This is particularly important in an era of increasing polarization, where the ability to

communicate effectively and respectfully can mitigate conflicts and foster understanding.

Conclusion

In summary, the Uzbek language plays a critical role in fostering patriotism, supporting personal and professional development, and enhancing speech culture among the youth. By prioritizing the teaching and promotion of the Uzbek language in educational institutions, we can shape a generation of responsible and engaged citizens. The issues discussed in this thesis will be elaborated upon during the conference, along with actionable suggestions for further promoting the status of the Uzbek language in various sectors of society. Ultimately, strengthening the connection between youth and their language will contribute to a more vibrant, cohesive, and patriotic society. The responsibility lies with educators, policymakers, and community leaders to ensure that the Uzbek language continues to thrive and serve as a source of pride and unity for future generations.

REFERENCES:

1. Abdujabborova, D. (2020). *The Role of Language in Shaping National Identity in Uzbekistan*. Journal of Uzbek Studies, 15(2), 45-60.
2. Karimov, I. (2017). *Language Policy and National Development in Uzbekistan*. Tashkent: Uzbek Publishing House.
3. Rahmonov, A. (2019). *Cultural Heritage and Language Preservation in Uzbekistan*. Central Asian Journal of Cultural Studies, 22(1), 78-89.
4. Turaeva, M. (2018). *The Importance of Mother Tongue in Education: The Case of Uzbekistan*. International Journal of Educational Research, 30(4), 123-136.
5. UNESCO. (2019). *Language Vitality and Endangerment: Global Perspectives*. Paris: UNESCO Publishing.

6. Yusupova, N. (2021). *Youth Engagement and National Identity: A Study on the Role of Language*. Youth Studies Journal, 10(3), 95-110.

QORAQALPOQ TILI FANINI O‘QITISHNING AHAMIYATI

Paxratdinov Kerimberdi Abdisaiitovich
Nukus DPI o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi
Paxratdinova Aruxan Kerimberdiyevna
Jamoat xavfsizligi universiteti Pedagogika fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada Qoraqalpoq tili fanini kursantlarda o‘qitilishi va ta’lim jarayonining o‘ziga xos hususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, kursantlar, imkoniyatlar, qoraqalpoq tili, o‘qitish usullari.

Mamlakatimizda bugungi kunda barcha sohalarda yangilanishlar, o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, ushbu amalga oshirilayotgan islohatlar o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatib kelmoqda. Prezidentimiz, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoyev yoshlar ta’lim-tarbiyasi haqida to‘xtalib: “Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi” – deya ta’kidlagan edi [1]. Darhaqiqat, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar ostida yosh avlodga bilim berish ishlari amalga oshirilmoqda. Yurtimizda yosh avlodni bilimli, iqtidorli yoshlarimiz etib tarbiyalash, vatanimiz ravnaqiga hissa qo‘shish maqsadida, Jamoat xavfsizligi universitetida ham kursant va talabalarga bilim berilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 15-aprel kunidagi PQ-5077-son “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga asosan Jamoat xavfsizligi universiteti tashkil etilgan bo‘lib, hozirgi kunda harbiy ta’lim muassasasida Bakalavriat fakulteti, Sirtqi ta’lim, Maxsus fakultet va Magistratura yo‘nalishlari bo‘yicha yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda.

Ushbu harbiy ta’lim muassasasida o‘nlab kursantlar fan, ta’lim, sport sohalarida yutuqlarga erishib kelmoqda. Jamoat xavfsizligi universitetida 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab, kursantlarga “Qoraqalpoq tili” fanidan darslar o‘tila boshladi. Qoraqalpoq millatining bir vakili sifatida ushbu yangilikdan ko‘nglimiz tog‘day ko‘tarilib, vatanimiz ravnaqiga hissa qo‘shish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga bo‘lgan kuch-g‘ayratimiz to‘lib toshdi. Shu o‘rinda biz, Qoraqalpoq tili fanining kelib chiqish tarixiga e’tiborimizni qaratishni o‘rinli deb hisobladik: “Qoraqalpoq tili - qoraqalpoq xalqining milliy tili hisoblanib, o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega. Qoraqalpoq tilining fan sifatida tadqiq qilinib, darsliklarga kiritila boshlashi XX asrning dastlabki yillariga to‘g‘ri keladi. Rus olimlaridan N.Baskakov, S.Malovlar tomonidan o‘rganilgan. Olimlar qoraqalpoq dalalari va kengliklarida yurib, ma’lumotlar to‘plagan. Ushbu olimlarning tadqiqot ishlaridan so‘ng, mahalliy olimlardan M.Dawletov, A.Dawletov, E.Berdimuratov, A.Bekbergenov, M.Qudaybergenov, O.Dospanov, B.Qutlimuratov, Q.Paxratdinov, Sh.Abdinazimov, A.Pirniyazova, G.Patullayeva, D.Seydullayeva, S.Shinnazarova, Z.Ismaylova, O.Embergenovalar qoraqalpoq tilining fonetikasi, leksikologiyasi va morfologiyasini chuqur tadqiq qilib, ilmiy maqolalar, o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar chop etishgan.”

Hozirgi kunga kelib, qoraqalpoq tili Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida joylashgan maktab, kolledj, litsey va Oliy ta’lim muassasalarida fan sifatida o‘qitiladi. Joriy yili 1-dekabr sanasida esa, “Qoraqalpoq tiliga davlat tili maqomi berilganligi”ga 35 yil to‘ladi. Ushbu sana munosabati bilan har yili Resublikamizdagi barcha ta’lim muassasalarida adabiy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkaziladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘z nutqida: “Mehr va g‘urur bilan aytaman, men nafaqat O‘zbekiston, Qoraqalpog‘istonning ham

farzandiman”-deya ta’kidlagan edi. Ushbu ezgu g‘oyalarni ilgari surgan holda, 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab, Jamoat xavfsizligi universitetida kursantlarga ham Qoraqalpoq tilidan darslar o‘tila boshladi. Hozirgi kunda yuqori qo‘mondonlik tomonidan tasdiqlangan o‘quv reja, fan dasturiga asosan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda kursantlarga bilim berilmoqda. Universitetta turli millat vakillari do‘stlik va totuvlikda ilm, bilim sirlarini egallamoqda. O‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lish uchun talpinmoqda. Qoraqalpoq tili asosan bitiruvchi kurs kursantlariga dars sifatida o‘tiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad, kursantlar o‘qishni tamomlagandan so‘ng, Respublikamizning barcha hududlarida xizmat vazifasini bajaradilar. Demak shunday ekan, mahalliy aholi vakillari bilan muloqot o‘rnatish, yuz berayotgan hodisalardan to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun foydadan holi bo‘lmaydi.

Kursantlarga dars berish jarayonida, qoraqalpoq tili, qoraqalpoq tilining paydo bo‘lish tarixi, milliyligi, urf-odat dasturlari, madaniyati va san’ati haqida ma’lumotlar beriladi. Kursantlarga zamonaviy ta’lim usulida va an’anaviy usulda darslar o‘tildi. Universitet kursantlari ushbu fan bo‘yicha nomutaxassis bo‘lganligi sababli, dastlabida fanni o‘zlashtirish qiyin kechdi. Ammo, zamonaviy axborot texnologiyalari, prezintatsiyalar, videoroliklar orqali dars o‘tganimizda kursantlarning fanni o‘zlashtirish ko‘rsatgichi ortib bordi va qoraqalpoq tili haqida tasavvurga,ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ldi.

Dars jarayonida kursantlar Qoraqalpog‘iston diyori, madaniyati va tarixi bilan chuqur tanishtiriladi. Mahalliy aholi vakillari bilan muloqotga kirishishda, o‘sha aholining milliyligi, urf-odat dasturlarini, etnik jihatlarini o‘rganish o‘ta muhimdir. Sababi, bo‘lajak ofitserlar Milliy gvardiya saflarida xizmat qilish jarayonida mahalliy aholi vakillari bilan jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha qoraqalpoq tilida suhbat olib boradilar.

Universitetda kursantlar tomonidan qoraqalpoq tilini o‘zlashtirishda mashg‘ulotlar o‘tilib, lug‘at yordamida qoraqalpoq tilida so‘zlar yodlashga beriladi. Mashqlar bajariladi, maqol so‘zlar, tez aytishlar va sherlar yod olishga vazifa sifatida beriladi. Prezintatsiyalar va

videoroliklar orqali mavzuni yanada chuqqurroq o‘rganishi uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, kursantlarga ta’lim berish jarayonida qoraqalpoq tilini o‘rgatish, o‘qituvchidan doimiy izlanishni talab qiladi. Sababi, nomutaxassis yo‘nalishda o‘quvchi kursantlarning qoraqalpoq tilini a’lo darajada o‘zlashtirishi keyingi xizmat faoliyatlarida o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida, qoraqalpoq tili fani o‘qituvchilaridan pedagogik mahoratni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekstonning-asosiy-ustuni-bilim-ta’lim-va- tarbiya-boladi.
2. https://www.gazeta.uz/oz/2022/07/01/karakalpakstan/
3. Qaraqalpaq tili., Darslik., E.Berdimuratov, Q.Allanazarov, G.Patullayeva 2020-yil.
4. Qaraqalpaq tili 10-klass., Darslik., E.Berdimuratov, Sh.Abdinazimov, Z.Ismaylova., No‘kis “Bilim”-2017.
5. Qaraqalpaq tili 11-klass., Darslik., Sh.Abdinazimov, Z.Ismaylova, B.Qutlimuratov., No‘kis “Bilim”-2018.

YOSHLARDA MA‘NAVIY-MA‘RIFIY SALOHIYATNI YUKSALTRISH

Qo‘rg‘onboyev Shukrillo Maxmudillo o‘g‘li, assistent
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ma‘naviyat, yoshlar huquqlari, davlat dasturi, barkamol avlod, kitobxonlik, intellectual, ijodiy salohiyat.

Аннотация: В данной статье представлена информация о воспитании гармоничной, целеустремленной и энергичной молодежи, обладающей современными знаниями и навыками в области укрепления интеллектуального и творческого потенциала молодежи, повышения ее причастности к проводимым в стране реформам, способной нести ответственность за достойное будущее страны.

Ключевые слова: молодежь, духовность, права молодежи, государственная программа, гармоничное поколение, чтение, интеллектуальный, творческий потенциал.

Annotation: This article provides information on strengthening the intellectual and creative potential of young people in our country, the education of competent, purposeful and bright young people who have modern knowledge and skills in increasing their immunity to the reforms carried out in our country, who can take responsibility for the worthy future of the country.

Keywords: youth, spirituality, youth rights, state program, harmonious generation, reading, intellectual, creative potential.

Yosh avlodni jismonan va ruhan sog‘lom, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, kelajagimizning munosib vorislari etib voyaga yetkazishga ko‘maklashish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yurtimiz kelajagi yosh avlodlar qo‘lida ekan, ularni har tomonlama yetuk, insonparvar, jamiyat va davlat oldida mas‘uliyatli shaxslar etib tarbiyalash eng ustuvor maqsadlarimizdan biridir. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarning zamirida Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari degan hayotiy g‘oya turibdi. Milliy yuksalish faqatgina ma‘naviy sohada emas, balki demokratik jamiyat va huquqiy davlat, farovon va tinch-osuda hayot, iqtisodiy jihatdan barqarorlik kabi hayotimizning barcha sohalarini taraqqiy ettirishni ko`zda tutadi. Bu jarayonlar davlatimiz rahbari

Sh.Mirziyoyevning tashabbusi asosida ilgari surilgan O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, uzoq muddatli 2030 yilga qadar mo‘ljallangan taraqqiyot konsepsiyasida o‘z aksini topmoqda. Ayniqsa, Raqamli iqtisodiyot-2030, ta‘lim tizimini taraqqiy ettirishning 2030 yilga qadar mo‘ljallangan konsepsiyasi va har bir jamiyat va davlatning taraqqiyotini, uni amalga oshirishga qaratilgan strategik dastur yoki konsepsiyalar bo‘lmasin ularning barchasini yoshlar manaviyatini yuksaltirishga qaratilgan.

Hozirda dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida yoshlar davlat hokimiyatini shakllantiruvchi, uning faoliyatida ishtirok etuvchi, mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy kuchga aylandi. Davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarida yoshlarning roli sezilarli darajada oshib bormoqda.

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining markazida yoshlarga ta‘lim-tarbiya berish jarayonlarini tubdan takomillashtirish va zamonaviylashtirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarni kuchli ijtimoiy himoya qilish masalalari turadi. Davlatimiz rahbaritashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan hujjatlardir. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, respublikamizda olib borilayotgan yoshlarga doir siyosat o‘zining izchilligi bilan alohida ajralib turadi.

Jumladan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, jamiyatimiz hayotining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarini liberallashtirish vazifasi jamiyat va davlat hayotida yoshlarning roliga yangicha yondashuvlarni qaror toptirish va rivojlantirish bugungi kunning bahs mavzusiga aylandi.

Yurtimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardanoq O‘zbekistonda yoshlar siyosatiga alohida e‘tibor qaratilib, 1991 yil 20 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishiva uning 2016 yil 14 sentyabrda yangi tahrirda tasdiqlanishi mamlakatimizda yoshlar

siyosatiga bo‘lgan e‘tibor va g‘amxo‘rlikni yangicha bosqichga ko‘tarishi bilan muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2017 yil 5 iyulda «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmoni va 2017 yil 18 iyulda «O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi. Ushbu meyoriy hujjatlarda yoshlarning ilmiy va innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yosh olimlarning jahon ilmiy maydonida raqobatbardoshliligini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, yoshlarning intellektual mulk ob‘ektlarini respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy tarmoqlariga joriy etish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar huzurida yoshlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi “Yoshlar qanoti” tashkil etilgan. Bulardan ko‘zlangan asosiy maqsad – mamlakatning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olishida yoshlarning faol ishtirokini ta‘minlash, yoshlarning ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish, ularda jamiyatimiz taraqqiyotiga to‘siq bo‘layotgan turli xil g‘oyaviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an‘analarimizni e‘zozlash, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yoshlarni faol ishtirok etishga chaqirish, barcha bo‘g‘inlardagi partiya organlariga saylanish, hokimiyat vakillik organlariga nomzodini ko‘rsatish, partiya yig‘ilishlarida muhokama kilinayotgan masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirish, takliflar kiritish, dasturiy maqsadlarni hayotga tatbiq etish jarayonlarida bevosita yoshlarning faol ishtirok etishini ta‘minlashga intilish, yoshlar orasida yaratuvchanlik g‘oyalarini ilgari surishi hamda ularni hayotga tatbiq etish yuzasidan amaliy taklif va mulohazalar ishlab chiqish kabilardan iborat

Umuman olganda, o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma‘naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirgan sog‘lom va barkamol etib voyaga yetkazishga hamda yoshlarni yuksak ma‘naviyatli va yuqori malakali kadrlar qilib tayyorlashga, shuningdek Vatanga xurmat ruhida

tarbiyalashga katta e‘tibor qaratib kelinmoqda. Davlatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘tgan qisqa fursat davomida yoshlar siyosatiga doir amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlar va ularning ijobiy natijasi bilan har qancha fahrlansak arziydi.

Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonda yoshlar siyosati natijasida olib borilgan samarali tadbirlar natijasida mamlakat yoshlari jahon arenalarida ham ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda. Bu yoshlarning iqtisodiyot, siyosat, sport, ma‘naviyat, ilm-fan sohalaridagi yutuqlarida namoyon bo‘ladi. Biroq mamlakat ilm-fanida yoshlar tashkilotlarining tashkil topishi, rivojlanishi, faoliyati tarixi alohida tadqiq qilinmagan. Bizningcha, O‘zbekistonda yoshlar tashkilotlari faoliyati fanlararo yo‘nalishda alohida-alohida va umumiy xususiyatlariga ko‘ra tadqiq etilishi ular oldida turgan muammolarni aniqlashda, bu muammolarga yechim topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalalar tarix, sotsiologiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, pedagogika kabi ijtimoiy fanlarning oldida turgan dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki, yoshlar muammolarini aniqlash va ularga yechim topish mamlakat barqaror rivojlanishining muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 15 iyundagi “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son;
3. 2030-yilga qadar O‘zbekiston respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida O‘zbekiston respublikasi oliy majlisi senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli o‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son
6. M.Abdullaev., E.Umarov va boshq. Madaniyatshunoslik asoslari. -Toshkent: Turon-Iqbol nashriyoti, 2006. -29 b.
7. Abdulhamid Ch. Vatanimiz Turkistonda temir yo‘llar // Sadoyi Farg‘ona. 1914, 6 iyun;
8. Professor Sultanali Mannopov, Abdulkhay Karimov, Shohida Ataboeva, Alijon Ergashev, & Shokhista Usmanova. (2021). Development Of Symphonic Music in Uzbekistan. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 2(2), 53–56. Retrieved from https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/259
9. Маннопов, С., & Сулейманова, Д. К. (2019). Музыкальное наследие узбекского народа. Проблемы современной науки и образования, (10 (143)), 82-84.
10. Mannopov, S. (2004). Uzbek folk music culture.(Study guide) Tashkent. New Age Generation.

O‘ZBEK TILINING TAFAKKURI UMMONDIR

D.M.Rahmonqulova
Chirchiq oliy tank-qo‘mondonlik bilim yurti Tillar kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Har bir millatning, xalqning o‘tgan kuni, buguni va kelajagini, uning dunyoda mavjudligini birgina omil – ona tili bildirib turadi. Dunyo olimlarining e’tirofiga ko‘ra, bugungi kunda yer yuzi aholisi besh mingdan ziyod tilda gaplashadi. Til – millatning g‘ururi, iftixori, faxridir. Ayni paytda tilda xalqning orzu-umidlari, maqsad va intilishlari o‘z ifodasini topadi. Til bor ekan, millat barhayot, yurar yo‘limiz nurafshondir. Til insonlarning o‘zaro aloqa vositasi bo‘lib, yaratuvchining insonga bergan bebaho ne’matidir. Millatlarni millatlardan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri ham tildir. Dunyoda

har bir xalqning o‘z tili uning bebaho boyligi, iftixori, najoti hisoblanadi. Hikmatli so‘zlar, she’ru dostonlar, qo‘shiqlar avvalo biror bir millatning ona tilida dunyoga keladi. Millat bor ekan, uning tili ham yashaydi, tili yashar ekan u millat boshqa millatlar orasida o‘z nufuzi, obro‘siga ega bo‘ladi. Jonajon o‘zbek tili xususida so‘z ketganda, shubhasiz, uning dunyo tillari orasida o‘ziga xos mavqega ega ekanini e’tirof etish joizdir [1].

Har bir xalqqa o‘z tili aziz va ardoqli. Sho‘rolar davrida rus tili Ittifoq tili sifatida rivojlantirildi. U jahon tillari darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, ko‘p ming asrlik tarixga ega bo‘lgan turkiy xalqlar ham o‘z ona tillari dunyodagi hech bir xalqning tilidan kam emasligini yoqlab chiqdilar. Bu yo‘ldagi sun’iy to‘siqlarni pisand etmadilar. Mustaqillik arafasida oilaviy va bozor tili darajasiga tushib qolgan o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish haqidagi taklif va kurashlar samarasiz ketmadi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Davlat hujjatlari, davriy nashrlar, darsliklar ona tilimizda yozila boshlandi. Bu xalqimiz ruhini ko‘tardi. Sho‘rolar davrida ham o‘zbek tilini tiklashga, uni Davlat tiliga aylantirishga intilish kuchli bo‘lgan. Xususan, ona tiliga bag‘ishlangan turli tadbirlar o‘tkazishga harakat qilingan bunday tadbirlar ayniqsa, mustaqillik arafasida tez-tez o‘tkazila boshlangan.

Har yili 21 oktabrni o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun sifatida nishonlab kelmoqdamiz. Har bir yildagi bayram turli shiorlar ostida o‘tkaziladi. «Ona tilim — jonu dilim», «Tilga e’tibor — elga e’tibor», «Til — millat ko‘zgusi» shular jumlasidandir. Til bayramining mazmunli va qiziqarli o‘tishi har bir o‘quv yurti muallimlarining aql-zakovati, o‘z kasbini qanchalik chuqur egallaganligiga bog‘liq. Til bayramiga taniqli yozuvchi, shoirlar, tilshunos va adabiyotshunos olimlar taklif etiladi. Ular yoshlarga til bilish barcha muvaffaqiyatlarning garovi ekanligini, har bir inson avvalo o‘z ona tilini, qolaversa boshqa tillarni sevib o‘rganishlari zarurligini uqtirib o‘tishadi. Til bayramlarida til haqidagi hikmatli so‘zlar, she’rlar, qo‘shiqlar yangraydi. Shu kuni radio va televideniye orqali til bayramiga doir qiziqarli chiqishlar uyushtiriladi. Til bayrami insonni ona tiliga va o‘z xalqiga bo‘lgan mehr-muhabbatini jo‘sh urdiruvchi betakror bayramdir. Til bayrami shuningdek xalqlar

o‘rtasida o‘zaro totuvlik va do‘stlik rishtalarini mustahkamlovchi muhim omildir [2].

O‘zbek tilimiz bugun murakkab tarixiy taraqqiyotni boshdan kechirib, davlat tili, davlat ramzi, milliy yaxlitlik omili, milliy madaniyat va ma’naviyatni ifodalovchi hamda ularni ajdodlardan avlodlarga yetkazuvchi darajasiga ko‘tarildi. Shuningdek, milliy tafakkur va millatlararo aloqa vositasi, axborot texnologiyalari tili sifasida yuqori pog‘onani egallab kelmoqda.

Til hamisha taraqqiyotda bo‘ladi, agar u rivojlanib bormas ekan, o‘lik tilga aylanadi. O‘zbek madaniyatining yuksalish davri bo‘lgan XIV-XV asrda shakllanib bo‘lgan tilimiz takomillashish pillapoyasiga qadam qo‘ydi. Bu davrda o‘zbek badiiy adabiyotining yuksak namunalari yaratildi. Adabiy va jonli so‘zlashuv tili orasida farq kuchaydi. Bu esa badiiy adabiyotning erkin ommalashuviga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmadi. Bu tilda yaratilgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Rabg‘uziyning “Qissai Rabg‘uziy”, shuningdek, Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroiy, Mavlono Lutfiyning yaratgan boy ilmiy-adabiy meroslarini tilga olish mumkin.

Ayniqsa, turkiy tilning beqiyos imkoniyatlarini ko‘rsatishda Alisher Navoiyning buyuk xizmatlarini alohida e’tirof etish joiz. Hazratning nafaqat badiiyati, balki tilshunoslikka bag‘ishlangan “Muhokamat ul-lug‘atayn”, ya’ni “Ikki til muhokamasi” nomli asari shu sohadagi beqiyos manba hisoblanadi. Qolaversa, shoh va shoir Bobur Mirzoning tilimizda yaratgan go‘zal asarlari bugun ham o‘quvchi tomonidan sevib mutolaa qilinadi.

Davlatimiz rahbari 2019-yil 21-oktabr kuni “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmon qabul qildi. Unga binoan 21-oktabr sanasi O‘zbekistonda “O‘zbek tili bayrami kuni” deb belgilandi: “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak, – dedi Prezidentimiz. – Bu olijanob harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z

oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak”.

O‘zbek tilining tafakkuri ummondir. So‘zlarimizda shu ummonning tomchilari ifodalanadi. Har bir tilning umrboqiyligi, xalqning tilga e’tiborligida, undan unumli foydalanishda namoyon bo‘ladi. Tilimizning ildizi baquvvat, sehri tarovati kuchliki, hozirgacha o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan. Uning sofligini saqlab, avlodlarga yetkazish, zararli tikonlardan tozalash har bir insonning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiton milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. O‘zbek xalq bayramlari “Sharq” T 2002
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/O‘zbek_tili

TIL – HAR BIR MILLAT MADANIYATINING O’ZAGIDIR

Tursunov Bexzodbek Baxodirovich
Andijon qishloq xo’jaligi va
agrotexnologiyalar instituti
“Gumanitar fanlar” kafedrasi
katta o’qituvchisi (PhD)
behzod.tursunov.88@mail.ru

Dunyo miqyosida globallashuv tendentsiyasining avj olishi va xalqaro darajada davlatlarning siyosiy va iqtisodiy integratsiyasi murakkab, ziddiyatli jarayon sifatida kutilmaganda salbiy xususiyatlar ham namoyon etayotgani sir emas. Bunday tadrijiylik sharoitida yer yuzida yashayotgan 5 mingdan ortiq millatlar va elatlarning fenomenini saqlashga ehtiyoj paydo bo’ladi. YUNESKO hisob kitobiga ko’ra dunyo bo’yicha olti mingdan ziyod tillar mavjud. Britaniya zamonaviy tillarni o’rganish instituti (Institute of modern languages research) ilmiy hodimlari tadqiqotlariga ko’ra globalizatsiya va migratsiya natijasida yaqin yuz yil ichida insoniyat ushbu tillarning yarmidan mahrum bo’ladi.

Har oyda 2 ta til o’lik tilga aylanmoqda.[1] Natijada, milliy davlatchilik poydevorini zaiflashtiruvchi omillar, ya’ni tili, tarixi va madaniyatini yo’qotib borayotgan xalqlar soni kun sayin ko’paymoqda.

SHuning uchun ham ona tillarning keng tarqalishiga qaratilgan barcha sa’y-harakatlar nafaqat tillarning turli xilligi va ko’p tillilikning shakllanishi, butun dunyo bo’ylab til hamda madaniy an’analar bilan to’laroq tanishishga, balki o’zaro tushunishga, chidamlilik va muloqotga asoslangan birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ona tillar har bir insonga tug’ilganidan boshlab qanday muhr qoldirishi bilan ham g’oyatda beqiyosdir.

Til va madaniy turli xillikka ko’maklashish maqsadida YUNESKO Bosh konferentsiyasining Qaroriga asosan 2000 yildan boshlab 21 fevral – “**Xalqaro ona tili kuni”** sifatida nishonlab kelinmoqda. Mazkur sana 2001 yildan buyon xalqaro miqyosda keng nishonlanib kelinmoqda. Xalqaro ona tili kunining mazmun-mohiyatida har bir xalqning o’z milliy tafakkuri, ma’naviyati, ruhiyatining o’zagini tashkil etadigan tilga alohida muhabbatning belgisi o’z aksini topadi. Mazkur kun ona tili bayrami sifatida nishonlanar ekan, bu bayram munosabati bilan har bir insonning o’z Vatani va o’z tiliga bo’lgan muhabbati, unga bo’lgan ehtiromi,qadrlash tuyg’ulari yangilanadi. SHu munosabat bilan, har yili O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik aloqalari qo’mitasida, shuningdek, respublikamizdagi ko’plab milliy-madaniy markazlar tomonidan ham xalqaro ona tili kuni munosabati bilan adabiy-badiiy kecha tashkil etilib kelinadi.

Dunyodagi barcha xalqlar o’zining milliy rasmiy tiliga ega, deb aytolmaymiz. CHunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog’liq. Tilshunos olimlarning fikricha, yana 25 yildan so’ng hozir muomalada bo’lgan tillarning har o’ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan.

YUNESKO vakillarining so’zlariga ko’ra, qachonlardir odamlar so’zlashadigan tillar soni 8 mingtagacha yetgan bo’lsa, hozirgi kunda sayyoramizda 6 mingdan ziyod til mavjud bo’lib, ularning 90 foizi yo’qolib ketish arafasida. Bu asosan tsivilizatsiya tufayli madaniyatidan

ayrilayotgan kam sonli millatlar tillaridir. Bu tillarda so’zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo’lsa, ayrimlari bundan ham bebahra.

Masalan, Afrika tillarida so’zlashuvchi aholining 80 foizi hamon o’z yozuviga ega emas. Minglab tillardan ta’lim tizimida foydalanishning imkoni yo’q. Internetdan foydalana olmaydigan tillar haqida-ku aytmasa ham bo’ladi. CHunki yangi texnologiyalar rivojlanishi tufayli ayrim xalqlar o’z tillaridan ko’ra zamonaviy tillardan foydalanishga majbur bo’lmoqda.

Bugun internetning 54 foizi ingliz tilida[2]. To’g’ri, avvallari ham tillar paydo bo’lgan, muomalada bo’lib, qanchadir vaqtdan so’ng yo’q bo’lib ketgan. Lekin hozirgidek vaziyat tarixda kuzatilmagan. Yo’qolib ketish arafasidagi tillarni saqlab qolish yo’lida amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarning asosiy maqsadi ham madaniyatlar va tillar xilma-xilligini ta’minlashdan iboratdir. CHunki aynan til tufayli millat va elatlarning madaniyati, urf-odatlari saqlanib qoladi.

Tillar saqlanib qolishi uchun ularni qo’llab-quvvatlash zarur. Aynan til tufayli insoniyat biror millatga mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va hurmat qilish tinchlikning kafolatidir. SHu sababli har bir xalq o’z tilini saqlab qolishga intiladi.

Bugungi kunda dunyodagi mavjud tillarning teng yarmi sakkiz mamlakat – Meksika, Indoneziya, Kamerun, Braziliya, Hindiston, Xitoy, AQSH va Rossiyaga to’g’ri keladi. Eng ko’p tilli mamlakat sifatida Hindiston tan olinadi. Bu mamlakatda aholi 845 til va lahjada so’zlashadi.

Родительный падеж. Указывается, что родительный падеж может употребляться без предлога и с предлогами при именах (*поэма Навои, составление отчета, центр города, подарок для матери*) и при глаголах (добиться успеха, требовать внимания, нет вопросов, хотеть мира, выехать из города).

- Существительные в родительном падеже отвечают на вопросы ***кого? чего?***
- Вспомогательное слово «**нет**»:

нет кого? *старшего брата; старшей сестры; старших братьев и сестер;*

нет чего? *орфографического словаря; свободного времени; нужной книги, лишней ручки; нужных книг, свободных мест.*

Дается таблица окончаний родительного падежа:

М.р. / С. р.	Ж. р.	Мн. число
-ого **+ -а, -я** **-его**	**-ой** **+ -ы, -и** **-ей**	**-ых** **+-ов, -ев, -ей,-й,** **о** **-их**

синего карандаша первого урока третьего апреля этого человека любимого фильма	синей ручки первой пары третьей аудитории этой студентки любимой книги	синих карандашей первых занятий третьих уроков этих студентов любимых занятий

Родительный падеж во множественном числе употребляется после слов *(не)много, (не)мало, (не)сколько*, а также числительных 5 – 20, 25 – 30 и т.д. В сравнении с другими падежами он представлен наибольшим количеством окончаний, которые зависят от рода существительных, что необходимо разъяснить на основе примеров. Во множественном числе существительные мужского и среднего рода в основном имеют окончания **-ов,-ев,-ей:** *много студентов, курсантов, деревьев, дней.* Существительные женского рода , а также среднего рода на **-о** – **ϴ** (нулевое окончание, теряют конечную гласную): *много книг, сестёр, подруг, улиц; много дел, слов, чисел, окон, блюд.* Существительные женского рода на **-ия** и среднего рода на **-ие** – **-й:** *много лекций, заданий, сведений.* Существительные мужского рода на **ж, ч, ш, щ – -ей**: ножей, ключей, карандашей, плащей. Существительные мужского и женского рода на **ь** – **-ей:** *дней, словарей, преподавателей, матерей, дочерей, дверей, ночей, статей***.**

Разъясняются значения родительного падежа:

- **Отрицания** (**нет/не было/ не будет *кого/чего:*** *первой пары, свободного времени, других студентов*).
- **Количества** (используется после слов, обозначающих количество и числительных кроме 1, 21, требующих именительного падежа: один студент, одна студентка, одно задание) 2 (3, 4, 22…) студента, студентки, задания – Р.п.
- **Принадлежности** – (в узбекском языке соответствует – ning, при этом необходимо обратить внимание на обратный порядок слов

в подобных словосочетаниях: *словарь Алишера – Aiisherning lug‘ati, срок годности – yaroqlilik muddati, книга друга – do‘stimning kitobi*).

- **Времени** (используется для обозначения точной даты: *Узбекистан вступил в ООН второго марта 1992- ого года*).
- **Места (**с предлогами **в/на**, что в узбекском языке соответствует – ga: *в университет – universitetga, на лекцию – ma‘ruzaga;* с предлогами **около, возле, напротив** – da*:около банка – bank yonida, возле ворот – darvoza yonida, напротив нашего университета – universitetimizning qarshisida).*
- **Причины** (используется с предлогами: **из-за, в результате, вследствие, по причине:** *в результате землетрясения / пожара; из-за аварии / сильного тумана; вследствие проливных дождей; по причине болезни*).
- **Сравнения.** Студентам даются конструкции:

Кто выше / ниже / младше / старше… кого?

Анвар выше Ахмада (ср.: Анвар выше, чем Ахмад И.п.). Мадина ниже Анвара. Андрей младше Марии. Мария старше Андрея.

Что больше / меньше / лучше / хуже / дороже / дешевле… чего?

Это помещение меньше нашей аудитории. Маркер дороже карандаша. Плов вкуснее каши. Фрукты полезнее чипсов.

Далее даются личные местоимения в родительном падеже и предлоги, с которыми он употребляется. Приводятся примеры на их употребление: *до встречи, во время отпуска, в течение года, после занятий, напротив института, недалеко от дома, сообщение от друга, у друзей, кроме него, без соли и майонеза, около часа, около остановки, возле школы, из города, с работы, с понедельника, ради семьи, для матери и дочери, из-за тумана.* При необходимости дается их перевод на узбекский язык.

Студенты часто спрашивают о соответствии падежей русского и узбекского языков. Преподавателю необходимо разъяснить, что прямого совпадения нет, но ряд падежных значений совпадают: родительный падеж принадлежности, дательный падеж адресата,

предложный падеж объекта речи, винительный падеж объекта, творительный падеж совместности и др.

Объем работы не позволяет отразить всю методику обучения падежной системе с учетом особенностей, связанных с несовпадением падежных значений и их грамматического/синтаксического выражения в русском и узбекском языках, различиями в использовании предлогов, исключениями и особыми случаями употребления. Поэтому мы ограничились лишь двумя падежами. К каждому падежу нами разработаны слайд-презентации, раздаточные материалы и комплекс упражнений.

Надеемся, что представленный материал поможет изучающим русский язык развить и закрепить практические навыки использования падежных форм и значений в речи.

Литература

1. Касьянова В.П. Использование новых технологий при обучении иностранному языку на начальном этапе // Актуальные вопросы современной педагогики: Материалы международной научной конференции. – Уфа, 2011.
2. Мелех Н.Е., Баранова И.И. Русские падежи.- СПб, 2005
3. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю. и др. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М., 2001.
4. Туйчибаева Ш.Ш. Русский язык: предложно-падежная система. – Ташкент, 2020.
5. Хащенко Т.Г., Макарова Е.В. Интерактивные методы обучения в образовательном процессе вуза. – Ульяновск: УГСХА, 2011. – 46 с.

РУССКИЙ ЯЗЫК В ГЛОБАЛЬНОМ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Туйчибаева Шахноза, Садикова Дилшода
Ташкентский государственный университет востоковедения

Русский язык как иностранный занимает особое место в современном мире. Его значение обусловлено тем, что это один из богатейших языков мира, на котором созданы величайшие произведения художественной литературы. Русский язык один из индоевропейских языков, родственный многим славянским языкам. Многие слова русского языка вошли в языки народов мира без перевода. Он является посредником в межкультурной коммуникации, в основе которой лежат знания языка и культуры, интерес к стране изучаемого языка. Статус русского языка закреплён в ООН, где он является одним из шести официальных международных языков. По состоянию на май 2024 года по использованию в Интернете он занимает шестое место после английского, испанского, немецкого, японского и французского [].

Русский язык, будучи эксплицитно и имплицитно связанным со всеми сферами жизни человека и общества, представляет собой лингвокультурологический феномен, который играет культурно-интегрирующую роль в эпоху современных глобальных межкультурных взаимодействий.

Сложные процессы межкультурной коммуникации – явные и скрытые конфликты как на уровне культур, так и на уровне использования того или иного языка, постоянное столкновение уже сформированных у человека ценностей с элементами иной культуры, иного уклада жизни, отраженного в изучаемом языке, и в то же время развитие полилога культур – делают язык важным инструментом регулирования всех сфер жизни. Преподавание и изучение русского языка как иностранного способствуют культурно- информационному взаимодействию разных народов, формированию единого коммуникативного пространства.

В связи с этим деятельность образовательных учреждений, реализующих программы по русскому языку как иностранному, оказывается многовекторной, направленной не только на обучение русскому языку как средству коммуникации в различных ситуациях, но и на развитие вторичной языковой личности.

Необходимость формирования понимания и принятия культурно-нравственных ценностей, отраженных в языке и культуре страны изучаемого языка, актуализации внутреннего потенциала языка как отражения богатого культурного наследия народа, определило направления организации образовательного, научного и культурно-просветительского пространства как особой системы.

Образовательное пространство, связанное с преподаванием русского языка включает множество аспектов, важнейшими из которых являются подготовка бакалавров по дисциплине «Русский язык», обучение иностранных слушателей по курсу «Русский язык как иностранный» и проведение тестирования по русскому языку на различные уровни владения в соответствии с международными стандартами.

Образовательная программа имеет коммуникативно-направленный характер, поэтому большое внимание уделяется развитию практических навыков владения языком и формированию различных компетенций.

Одной из проблемных зон обучения русскому языку как иностранному остается адаптация к незнакомой образовательной, культурной и социальной среде. При вхождении в иную культуру у слушателей возникают трудности в силу причин разного характера: недостаточная для определения тактик и стратегий коммуникации информация о стране, влияние стереотипных представлений, недостоверная и часто искаженная (иногда даже негативная) информация о другой культуре.

Формирование культурно-просветительского пространства, помимо большого количества мероприятий, нацеленных на развитие культуры межнационального общения, приобщение обучаемых к истории, традициям и культуре различных народов, предполагают включение лингвокультурного компонента при обучении русскому языку и организацию самостоятельной работы. В этом случае при изучении иностранного языка вторичная языковая личность формируется посредством знакомства не только с культурными фактами страны изучаемого языка как

таковыми, но и с культурно-ценностной информацией, извлекаемой из отдельных единиц языка и языковой системы в целом, чему способствуют интерактивные формы организации занятий и использование инновационных методов и приемов.

Стратегия успешного обучения русскому языку как иностранному предполагает сочетание учебной и внеаудиторной работы, которая включает не только организацию и проверку самостоятельной работы обучающихся, но и другие формы включения студентов и слушателей в языковую среду с целью их мотивирования к общению с носителями изучаемого языка.

Важно их включение в образовательное и культурно-просветительское пространство не в качестве пассивных получателей знаний, а активных участников формирования такого пространства, поэтому слушатели и студенты привлекаются к проектной деятельности в рамках аудиторной и внеаудиторной работы.

Современная методика преподавания русского языка как иностранного особое внимание уделяется коммуникативным и интенсивным методам обучения, которые нацелены на практическое овладение языком и использование его в различных ситуациях. Метод проектов способствует развитию умений самостоятельно отбирать, критически осмысливать и обобщать информацию на изучаемом языке. Важно, что в рамках проектной деятельности обучающиеся участвуют в моделировании социального взаимодействия в малой группе, приобретая знания в ходе самостоятельного решения поставленных преподавателем практических задач.

Поиск решения поставленной учебной задачи, самостоятельный выбор способов достижения цели, совместная групповая деятельность при подготовке проекта дают возможность обучающимся исследовать языковой материал, открывать закономерности языковой системы. Проекты обучающихся участвуют в различных конкурсах и форумах (Международный студенческий форум «Наследники», Международный конкурс

проектов и творческих работ «На перекрестке культур»). Студенты занимаются проектной деятельностью в рамках Студенческого исследовательского центра русского языка и межкультурной коммуникации. Вовлечение слушателей и студентов в решение предлагаемых учебно-методических и культурно-просветительских проблем снимает у обучающихся психологическую напряженность, создает особую атмосферу доверия и сотрудничества, способствует повышению мотивации изучения русского языка.

Преподавание и изучение языка становится важным не только в плане развития языковой, лингвистической, коммуникативной и лингвострановедческой компетенций, но и в плане влияния языка на социальную, культурную, политическую и даже экономическую сферы жизни. На современное общество серьезное влияние оказывает активизация миграционных процессов, постоянный рост открытости стран для контактов, усиливающееся, следовательно, усложняющееся межкультурное взаимодействие.

Таким образом, система преподавания русского языка как иностранного в современных условиях должна соответствовать вызовам постоянно меняющегося мира. Новые социально-культурные условия актуализируют для общества обучение иностранным языкам, в частности, русскому языку: владение иностранными языками стало не просто показателем образованности, а важнейшим инструментом успешной карьеры человека, общество все более характеризуется как поликультурное. Процессы глобализации предопределяют актуальность обучения иностранным языкам как средству коммуникации между представителями разных народов и культур.

При современном подходе к обучению русскому языку как иностранному в университетском сообществе должна быть выстроена система взаимодополняющих видов деятельности с целью эффективной организации учебного процесса, реализации поставленных целей и задач, целенаправленного управления процессом усвоения изучаемого языка.

Литература

1. Воробьева Л.Б. Фразеологические единицы как лингвокультурологический источник при изучении русского языка как иностранного // Мир без границ: русский язык как иностранный в международном образовательном пространстве. –Псков, 2020. С. 110-115.

2. Грицкевич Ю.Н. Историческое комментирование фактов современного русского языка в аспекте преподавания РКИ как способ формирования вторичной языковой личности. // Мир без границ: русский язык как иностранный в международном образовательном пространстве. -Псков: Псковский государственный университет, 2020. С. 116-123.

3. Туйчибаева Ш. Ш. Возможности применения современных педагогических технологий и средств наглядности при обучении русскому языку //World scientific research journal. – 2023. – Т. 13. – №. 1. – С. 126-140.

ГРАДУАЛ ИНПАРАЛЛЕЛИЗМ: ТУРЛИ ТИЗИМЛИ ТИЛЛАРДА ЛИСОНИЙ МАЪНОЛАРНИ ФАРҚЛАШ УСУЛИ СИФАТИДА

Ширинова Нилуфар Джаббаровна
ЎзР ЖХУ доценти, филология фанлари номзоди
nilufar.shirinova@mail.ru

Аннотация: Мақолада градуал инпараллелизмга хос бўлган бир маъно/вазифа/мақсадни амалга оширишда бирдан ортиқ ҳамкор лисоний унсурларнинг иштирок этиши, мазкур шакл, усул ва воситаларнинг сираси тугал (чекланган) характерга эмас, балки очиқ, чекланмаган ва прогрессив хусусиятга эгалиги, градуал

инпараллелизм ўз моҳиятига кўра нафақат тилнинг юза сатҳ бирликларида, балки лисоний онг уячаларида мавжуд муносабатларнинг ифодаси бўлиб, коммуникант мақсадига кўра ва нутқ вазиятига кўра фаоллашиши масалалари тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: лингвистик параллелизм, лингвистик градуонимия, градуал параллелизм, градуал инпараллелизм, градуал интерпараллелизм, градуонимик қатор, грамматик сон категорияси, грамматик усул ва воситалар.

Лингвистик параллелизм ҳодисасининг турли лисоний аспектларда воқеланиши масаласига бағишланган қатор ишлардаги таҳлилларга таянган ҳолда бу ҳодисага оид нафақат умумий ва фарқли хусусиятларни ажратиш имконига, балки эквивалентлик муносабатлари ва эквивалентлик тамойилини ҳам ўрганишга эришиш мумкин, яъни ўзаро параллел муносабатларга киришаётган исталган тил бирлиги муайян категория/маъно/вазифани реаллаштириш учун ўзаро муқобил/шерик/ҳамкор/ўринбосар мавқеида бўлади: ўзаро параллел қаторда турган бир лисоний усул ёки восита доминантлашса, иккинчи ёки кейинги усул/восита нейтраллашиши ҳақида хулоса қилиш мумкин. Бу каби ҳамкорлик тил иқтисодийлиги, ихчамлиги ва мақсадлилигини ҳам белгилайди, чунки ҳар қандай ҳолатда ҳам (қанчалик бой ва ранг-баранг восита, ресурс ва усулларга эга бўлишига қарамай [12; 13; 14; 15; 16; 17; 20]) тил ўзининг асосий вазифаси – фаол, ўзаро шартланган ва мақсадли интерпретацияни амалга оширишга ҳаракат қилади.

Энди бевосита градуал параллелизм ҳодисасига келадиган бўлсак, унда **лингвистик градуонимияга хос бўлган** [1; 2; 8; 9; 10]:

- даражаланиш қаторининг очиқлиги;
- градуонимик қаторнинг нисбийлиги (ўзгарувчан, окказионал, темпорал, баъзан индивидуалллиги);
- градуал занжирда доминанта (нейтрал бирлик)нинг мавжудлиги;

- даражаланиш муносабатлари – бир белгининг кучайиши бошқа бир белги(хусусият)нинг пасайиши ҳисобига тузилиши (тескари алоқа);

- градуонимик боғланишлар нафақат тилнинг юза сатҳ бирликлари, балки лисоний онг даражасида, тилнинг ички механизмига ҳам хослиги сингари ҳамда **лисоний параллелизмга хос бўлган** [4; 5; 6; 7; 11; 12; 13]:

- бир маъно/вазифа/мақсадни амалга оширишда бирдан ортиқ ҳамкор лисоний унсурларнинг иштирок этиши [18; 19; 20];

- мазкур шакл, усул ва воситаларнинг сираси тугал (чекланган) характерга эмас, балки очиқ, чекланмаган ва прогрессив хусусиятга эгалиги;

- муайян параллел бирлик(лар)нинг устуворлашиши/ фаоллашиши/фарқланиши/ажратилиши – бошқа бир (ёки бирдан ортиқ) восита/усулларнинг пасайиши/нейтраллашиши/ чекиниши (ўз ўрнини бўшатиши) эвазига содир бўлиши;

- лисоний параллелизм ўз моҳиятига кўра нафақат тилнинг юза сатҳ бирликларида, балки лисоний онг уячаларида мавжуд муносабатларнинг ифодаси бўлиб, коммуникант мақсадига кўра ва нутқ вазиятига кўра фаоллашиши

каби кўплаб тамойилларнинг инъикосини кўрамиз. Қуйида мана шу инъикосга дахлдор таҳлилларни амалга оширишга ҳаракат қиламиз.

Аввалambор, градуал параллелизмнинг **ички (инпараллел)** ва **ташқи (интерпараллел)** турларини ажратишни маъқул топдик. Уларнинг ҳар бирини тадқиқ этиш – нафақат лисоний даражаланиш (градуонимия) ҳодисасининг илмий моҳиятини чуқурроқ тушунишга, балки маълум маънода қариндош/бир тизимли ҳамда ноқариндош/турли тизимли тилларнинг ички ва ташқи имкониятларини ва умуман шу мақсадда иштирок этувчи умумлисоний, умумлингвистик тамойилларни ҳам далиллашга шароит яратади.

Градуал инпараллелизм. Юқорида айтилганидек, лингвистик градуал параллелизмнинг бир тури – градуал инпараллелизм бўлиб, бир тил доирасидаги муайян лисоний маъно ва/ёки категорияни

юзага чиқаришда бир неча усул ва воситаларнинг ўзаро, ички ҳамкорлигини назарда тутади. Ишда ўзбек тилидаги миқдорий белгини ифодалаш хусусиятлари шу турдаги параллелизмга мисол бўла олади:

1-жадвал

Ўзбек тилида сон категориясини ифодалашда инпараллелизм

Сўз туркуми	Сон категорияси	
	Бирлик	**Кўплик**
От	*китоб, инсон, хабар*	*китоблар, оломон, ахборот*
Олмош	*мен, сен, у, бу, шу*	*биз, сиз, улар, булар, шулар*
Феъл	*келаман, келасан, келади*	*келамиз, келасиз(лар), келишади (келадилар)*

Бунда ўзбек тилида сон грамматик категориясини ифодалаш учун бирдан ортиқ усул ва воситаларнинг ўзаро инпараллел тарзда ишлатилиши градуонимик йўналишда ривожланишини кўриш мумкин. Масалан, сон маъносини ифодалашда “унумдорлик даражасига кўра фарқланиш” кузатилади:

унумдорлик даражасининг ошиши

китоблар ↔ кўп китоб ↔ китоб-китоб ↔ китоб-дафтар ↔ кито-о-о-б

унумдорлик даражасининг камайиши


1-расм. Ўзбек тилида сон маъносини ифодаловчи инпараллел бирликларнинг унумдорлик даражасига кўра градуонимик қатори

Бунда ўзбек тилида *китоблар* шакли услублараро (бадиий, сўзлашув, илмий, публицистик ва расмий-идоравий услублар) энг унумли ишлатиладиган грамматик шакл сифатида градуал параллел қаторнинг кучли аъзоси сифатида намоён бўлса, тилларда функционал чегараланиш (вазиятга кўра ишлатилиши, оғзаки нутқда реаллашиши)га, услубий ва прагматик жиҳатдан хосланганлик (кўпроқ сўзлашувга хослиги)ка эга бўлган *кито-о-о-б* шакли энг камунум шерик сифатида гавдаланади. Ўзаро параллел бирликларнинг кейинги тартибланиши *кўп, анча, хийла, тўртта..., бир неча...* сингари аналитик воситаларнинг ишлатилиши; тилимизда нафақат сон, балки белги (сифат) интенсификатори ҳисобланган такрорий сўзлар (*китоб-китоб*); ҳамда китоб ва шунга ўхшаш, алоқадор нарса, ашёларни англатувчи *китоб-дафтар* шакли эса, аксинча, ҳам лексик-семантик, ҳам услубий, ҳам функционал-прагматик жиҳатдан камунум ҳамкор восита сифатида қаторнинг охирроғидан ўрин олмоқда.

Флексия усули орқали кўплик маъносини бериш инглиз тили морфологик тизимининг ўзига хос имкониятларидан бири бўлиб, кўплаб лисоний маъно ва категорияларни воқелантириш, жумладан, сон категориясини ифодалаш учун ҳам фаоллашишини кузатишимиз мумкин [3]. Бунда отларга қўшилиб, бевосита кўплик маъносини ифодалайдиган -s флектив шакли инглиз тилининг ташқи флексияларни ишлатиш (аффиксация) имкониятларидан дарак берса, ички флексия (бирор бир грамматик маънони беришда сўз таркиби, тузилиши, шакли, талаффузи ва имлосининг тўла ва/ёки қисман ўзгариши ёхуд ўзгармасдан қолиши) айни пайтнинг ўзида сон маъносини реаллаштиришда ҳамкор усул сифатида гавдаланмоқда.


Умуман олганда, инглиз тилидаги флектив ҳолатларнинг нисбатан унумлилигини ҳисобга оладиган бўлсак, тил бирликлари

(от, олмош, феъл каби)да уларнинг ҳар иккала – ички ва ташқи флексия – тури ҳам барқарор инпараллел воситалар деб қаралиши мумкин:




2-расм. Инглиз тилида сон маъносининг ташқи флексия (аффиксация) орқали ифодаланиши

Юқоридаги расм инглиз тили морфологик бирликларининг ташқи флексия орқали инпараллелизмни реаллаштиришига дахлдор бўлса, кейинги ҳолат инглиз тилида унумли бўлган ички флексия билан боғлиқ бўлиб, хусусан, миқдорий белгини ифодалаш учун ҳам эквивалентликни намоён этади:




3-расм. Инглиз тилида сон маъносининг ички флексия орқали ифодаланиши

Мазкур фарқланишда **супплетивизм** (муайян лексик ёки грамматик маънони беришда бошқа ўзакдан фойдаланиш) ҳам иштирок этиб, эквивалент шакл(лар)ни намоён этади:



4-расм. Инглиз тилида сон маъносининг супплетивизм орқали ифодаланиши

Кўринадики, инглиз тили сон грамматик маъносини лексик ва морфологик усуллар билан беришда рангба-ранг имкониятларга эга бўлиб, улар тегишли тартибда инпараллел ҳодисалар сифатида тартибланади. Қуйида юқорида келтирилган усулларни умумлаштирган ҳолда инглиз тилида сон грамматик категориясини ифодаловчи усул ва воситалар инпараллелизмини кўрсатишга ҳаракат қиламиз:



5-расм. Инглиз тилида сон грамматик категориясини ифодалашда инпараллелизм

Инглиз тилида сон категориясини флектив ва супплетив шакллар билан ифодалашда эквивалентликни намойиш этувчи мазкур тасниф инпараллелизмга яққол мисол бўла олади.

Градуал инпараллелизм нафақат бирор-бир грамматик маънони берувчи лингвистик усул ва воситалар орасида, балки лексик бирликлар орасида ҳам воқеланиши мумкин. Масалан, ишимизнинг биринчи бобида таҳлилга тортганимиз **How+adj…?**, аниқроғи, a) *How happy is he/she?* b) *How unhappy is he/she?* маъноларини реаллаштиришга хизмат қилувчи *so, really, extremely, a little bit, quite, very, absolutely* каби воситалар ёрдамчи аналитик

воситаларнинг ҳам ўзаро параллелизмини кузатамиз. Бундай боғланишни параллелизм дейишимизга сабаб, мазкур воситалар инпараллел муқобиллар сифатида “the level of happiness” (“бахт(лилик) даражаси”) ҳамда “the level of unhappiness” (“бахтсизлик) даражаси”) лексик-семантик ҳамда грамматик маъноларини юзага чиқаради: *He/She is so happy/unhappy; He/She is really happy/unhappy; He/She is extremely happy/ unhappy; He/She is a little bit happy/unhappy; He/She is quite happy/unhappy; He/She is very happy/unhappy; He/She is absolutely happy/unhappy.*

Бу эквивалентларнинг барчаси грамматик жиҳатдан аналитик воситалар, уларнинг воқеланишига сабаб бўлаётган лингвистик имкониятлар эса аналитик усуллар бўлиб, лексик-грамматик инпараллизмни намоён этмоқда. Мазкур инпараллел элементларнинг нисбий даражаланишини ҳисобга оладиган бўлсак, қуйидаги градуал инпараллел занжир ҳосил бўлади:

Intensification of *happiness/unhappiness*

...a little bit ~ quite ~ really ~ so ~ absolutely ~ extremely...

Neutralization of *happiness/unhappiness*

6-расм. *How happy/unhappy is he/she?* сўроғига жавоб бўла олувчи кўмакчи аналитик бирликлар инпараллел градуал қатори

Инпараллелизм микроградуонимик қатордан макроградуонимик қаторга ўсиб боришини ҳисобга оладиган бўлсак, 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-расмларнинг ўзида бирдан ортиқ инпараллел градуал ва ноградуал боғланишларни кўрамиз: инглиз тилидаги аналитик воситалар параллелизми ўзаро зидланиш-жуфтланиш (параллеллашиш)дан ташқари, бир-бирига контраст бўлган луғавий маънолар – “бахт(лилик)-бахтсизлик” семаларини ноградуал ҳамда градуал кўринишларда жойлаштиришга шароит яратмоқда (бу таҳлилларда “ноградуал” тушунчасини юқоридаги таснифларни шарҳлаш мақсадидагина ишлатмоқдамиз, зеро

лисоний онгимизда барча тил бирликлари фақат (!) градуал муносабатларда яшашини унутмаслигимиз лозим). Шундай экан, мазкур муносабатлар бир тил (инглиз тили) доирасида турли (ва ҳатто зид) маъноларни рўёбга чиқарувчи **градуонимлар инпараллелизми, инпараллел градуонимлар муносабати** ёхуд **инпараллел градуонимия** сифатида изоҳланиши мумкин.

Албатта, ҳар бир градуонимик қаторда бўлгани каби градуал инпараллел боғланишларда ҳам алоқадорликнинг ўсиши “тескари алоқа” йўналишида бўлади – бирликларнинг муайян сема ёки вазифа асосида қаторлашиши “... маънонинг кучайиши ва аксинча” тамойили бўйича амалга ошади: “сон маъносини ифодаловчи бирликлар унумдорлик даражасининг ошиши ва аксинча”; “сон маъносини ифодаловчи бирликлар унумдорлик даражасининг камайиши ва аксинча” каби. Бунда даражаланиш қаторининг ва умуман, миқдорий ўзгаришларнинг сифатий ўзгаришларга ўтиши қонунининг инъикоси каби маънонинг кучайиши/ошиши/интенсивлашиши унга зид саналган маъно ёки функциянинг пасайиши/камайиши/нейтраллашиши ҳисобига бўлади (бу параллел воситаларда унумдорликнинг ошиши камунумдорлик ёки унумсизликнинг камайиши (ва аксинча) ҳисобигадир). Бу эса, даражаланиш муносабатларининг, хусусан, градуал параллел муносабатларнинг яна бир муҳим тамойили – **тил муайян маънони ёки вазифани ифодалашга киришар экан, маълум бир усул ва воситаларни (тил мақсади, шароити, имкониятлари ва вазиятга кўра) нейтраллаштириш эвазига бошқа бир(лар)ини доминантлаш йўлидан бориши** – реаллашаётганидан далолат беради.

АДАБИЁТЛАР:

1. Арипжонова Ш.Ғ. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол.фан.номз. … дисс. – Т., 1996.
2. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Монография. – Тошкент, 1995.

3. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.
4. Веселовский А.Н. Психологический параллелизм и его формы в отражениях поэтического стиля//Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л., 1940.
5. Джусупов Н.М. Лингвистический параллелизм в англоязычном поэтическом тексте: когнитивно-стилистический потенциал и проблема интерпретации//“Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал. – № 4 (23)/ 2018. – С. 113-119.
6. Минский М. Сообщество разума. – М.: АСТ, 2018.
7. Ширинова Н.Д., Ҳамдамова Г. Грамматик маъноларни ифодалашда параллелизм// Адабий тил жонкуяри. Проф. М.Мирзаев таваллудининг 90 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами. – Бухоро, 2002. – Б. 76-78.
8. Ширинова Н.Дж. Предметность и качество: от синкретности к дискретности. Научная монография. LAP (Lambert Academic Publishing): Saarbrücken, Germany, 2013. ISBN-978-3-659-35163-1. – С. 66.
9. Ширинова Н.Д. Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлаш воситалари: Филол.фан.номз. .... дисс. – Тошкент, 2010.
10. Ширинова Н.Д. Лисоний сатҳларда градуонимик муносабатлар. Илмий монография. – Т.: Turon Zamin Ziyo, 2016.
11. Ширинова Н.Д., Ширинова Н.Д. Лисоний параллелизм масаласига доир//“Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” scientific journal on January, 2023. – P. 256-259.
12. Якобсон Р. Грамматический параллелизм и его русские аспекты//Якобсон Р. Работы по поэтике: Перевод/Сост. и общ. ред. М.Л. Гаспарова. – М.: Прогресс, 1987. – С. 99-132.
13. Якобсон Р. Поэзия грамматики и грамматика поэзии//Семиотика: Антология/Сост. Ю.С. Степанова. Изд. 2-е, испр. и доп. – М., 2001. – С. 525–548.

14. Jachnov H. Kognition, Sprache und phraseologische/parmiologische Graduierung Harrossowitz Verlag. – Wiesbaden, 2005.
15. Leech G.N. A Linguistic Guide to English Poetry. – London–New York: Longman, 1969.
16. Leech G., Short M. Style in fiction: a linguistic introduction to English fictional prose. 2nd ed. – London: Longman, Pearson Education, 2007.
17. Short M. Exploring the Language of Poems, Plays and Prose. – London–New York: Longman, 1996.
18. Shukurov P.M. Parallel sintaktik butunliklar. – Fargona: NDA, 2004.
19. Shukurov R.M. Parallel sintaktik butunliklar: Filol.fan.nomz. ... diss.avtoref. – T., 2004.
20. Toshxujaeva Sh.G'., Abdusamatova N.M. Erkin A'zam asarlarida sintaktik parallelizm//International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia: https://econferencezone.org Nov, 24th 2022.

ГРАДУОНИМИЯ ВА СИНОНИМИЯ

Ширинова Нилуфар Джаббаровна
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги Тилларни ўрганиш кафедраси доценти, филология фанлари номзоди

Тил ҳақидаги фан қанчалик қадим тарихга эга бўлмасин (тилни ўрганиш Арасту даврига бориб тақалишини инобатга олсак), синонимия (ва антонимия) ҳодисасининг тадқиқи ҳам шунчалик узоқ даврга бориб тақалади. Бу, албатта, инсонларнинг илк гносеологик фаолияти маҳсули сифатида ўзаро ўхшаш (ва фарқли) бўлган реал ва нореал нарса, ҳодиса (ва уларнинг белги-хусусиятлари), ҳаракат (ва уларнинг ҳолатлари) каби борлиқ жараёнларини англай/фарқлай/ажрата бошлаганлари билан боғлиқ. Эътироф этиш жоизки, маънодошлик (синонимия) нафақат лексик, балки лисоний ҳодиса сифатида жаҳон тилшунослигида (Л.Мёрфи, П.Эдмондс ва Г.Хирст, С.Фельбаум, Д.Круз [6; 7; 8], Р.Сайфуллаева, И.Сиддикова, Р.Юнусов [4; 5] каби) анча изчил тадқиқ этилгани,

нафақат босма, балки онлайн синонимик луғатлар ҳам яратилгани [9], шунингдек, WordNetда синонимларни жойлаштириш бўйича анча ишлар амалга оширилаётганига қарамай, унинг лисоний даражаланиш муносабати билан алоқадорлиги, ўхшаш ва фарқли томонлари борасида, афсуски, етарлича тадқиқотлар амалга оширилган деёлмаймиз. Чунончи, бу борада Ҳ.Неъматов, О.Бозоров, Ж.Жумабаева томонидан олиб борилган изланишларни мисол келтириш мумкин. Градуонимия ва синонимия ҳодисаларининг ўзаро муносабати ҳақида О.Бозоров ўз илмий ишида айрим маълумотларни беради, жумладан у В.Г.Павловнинг фикрини қувватлаб, қуйидагича ёзади: *“Градуонимия ва синонимия ҳодисалари ўзларининг асос белгиларига кўра кескин фарқланадилар. Зеро синонимия икки ва ундан ортиқ лексема ва фраземалар семемаларининг айнанлигига асосланса, градуонимия семемалар асосий семалардаги градацияли фарқланувчига таянади. Бундан синонимларда асосий маъноларнинг тенглиги, градуонимияда эса тенг эмаслиги маълум бўлади [2]”.*

Айнан мана шу таъриф аслида синонимиядан ўсиб чиққан, таъбир жоиз бўлса, синонимия ва антонимиянинг ўзаро ҳамкорлигини намойиш этадиган лисоний даражаланиш ҳодисасига берилган энг сара изоҳ бўлиб, градуал муносабатларни алоҳида тил ҳодисаси сифатида тадқиқ ва таҳлил этишга йўл очади. Бундан ташқари, ҳар бир тилда, жумладан, ўзбек тилида корпус лингвистикасини ривожлантириш мақсадида синонимларнинг градуонимлардан фарқи ва ўзаро алоқадорлигини ўрганиш муҳимлиги кундан-кунга аёнлашиб бормоқда.

Аввалабор, турли тилларда олиб борилган синонимлар таҳлилида уларнинг соф синонимлар, квазисинонимлар, контекстуал, окказионал синонимлар, мантиқий синонимлар, когнитив синонимлар, стилистик синонимлар каби кўплаб турларга ажратилишини кўрамиз. Аммо бу тилларнинг барчасида яратилаётган луғат ва қомусларда ҳамма синонимлар ҳам ҳар доим бир хил маънони ифода эта олмаслиги таъкидланади. Жумладан, инглиз тилида ҳам соф синонимлар жуда камчиликни ташкил этиши

эътироф этилиб, ҳар доим ҳам тезаурусларда берилган синонимлар бир-бирининг ўрнини боса олмаслиги мисоллар билан кўрсатиб ўтилади [2]. Мисол учун *elated* ва *happy* сўзлари олинган бўлиб, *elated* ўрнига *happy* ишлатилиши мумкин, лекин *happy elated* сўзининг асл маъносини берувчи синоним сифатида қаралмаслиги таъкидланади. *Elated* сўзи *happy* сўзининг гипоними сифатида қаралиши мумкинлиги қуйидаги мисол орқали исботлашга ҳаракат қилинади: *Britt is elated. →Britt is happy. (Thus, we can't say: Britt is elated, but she's not happy) – Бритт еттинчи осмонда → Бритт бахтли. (Демак, биз Бритт еттинчи осмонда, лекин у бахтли эмас дея олмаймиз). Britt is happy. Britt is elated. (So, we can say: Britt is happy, but she's not elated.) – Бритт бахтли. → Бритт еттинчи осмонда. (Демак, биз Бритт бахтли, лекин у еттинчи осмонда эмас, дея оламиз [6])*. Демак, *elated* сўзи *happy* сўзига қараганда юқори, кучли даражага эга бўлганлиги сабабли ҳам улар ўрин алмашганда, бирининг асл маъносини ва моҳиятини иккинчиси тўлиқ бера олмаслигини кўришимиз мумкин, бу эса ўз-ўзидан градуонимия ҳодисасининг инглиз тилида тадқиқ этилмаганидан далолат беради [2].

Инглиз тилида синонимия ва градуонимиянинг ўзаро алоқадорлигини ўрганиш мақсадида тезаурус(лар)га мурожаат қилдик ҳамда манбаларда ўзаро маънодош бирликлар орасида соф синонимлар ҳам иштирок этишининг гувоҳи бўлдик. Масалан, **abuse** vb Abuse, misuse, mistreat, maltreat, ill-treat, outrage all denote to use or treat a person or thing improperly or wrongfully. Abuse and misuse are capable of wider use than the others, for they do not invariably imply either deliberateness or wantonness {I can't abuse your generosity to that extent. You're doing more than enough for me already—Mackenzie}.

Мазкур таҳлилдан кўриниб турибдики, *abuse, misuse, mistreat, maltreat, ill-treat, outrage* сўзлари синонимлар луғатидан жой олган бўлса-да, улар орасида нафақат стилистик (коннотатив) фарқланишни, балки денотатив фарқланишни ҳам кузатишимиз мумкин: бинобарин, *misuse* "subversion" маъносини (бузиш/йўқотиш/вайронкорлик/ қўпорувчилик жараёнини)

ифодаловчи сўзлар ичида бирор-бир ишни нотўғри амалга ошириш, нотўғри қўллаш, ниманидир суиистеъмол қилишни назарда тутса, *abuse* бирор-бир объект/ҳаракат/ҳолатни оқибатлари билан тугатиш, йўқотишни ифодалайди, яъни, ўз-ўзидан мазкур сўз бузиш/йўқотиш/вайронкорлик/қўпорувчилик фарқловчи семаси асосида қаторланувчи элементлар ичида "қўпорувчиликнинг кучайиши" йўналишида кейинги позицияни эгаллайди. *mistreat/maltreat/ill-treat* сўзлари* эса бир-бирига жуда яқин маъноли сўзлар сифатида зулмкор-жоҳил фаолиятнинг намойиши кўринишида кейинги интенсив аъзо мақомини олади. Мазкур градуонимик занжирнинг охирги кучли учини *outrage* эгаллайди, бинобарин, бу сўз чек-чегара билмайдиган, ҳадсиз зулм, агрессия, вайронкорликни билдиради. Кўринадики, луғатга киритилган юқоридаги маънодош лексик бирликлар орасида ҳам ўзига хос даражаланиш муносабатлари юзага келади:

Intensification of the meaning of subversion

misuse ~ abuse ~ mistreat/maltreat/ ill-treat ~ outrage

Neutralization of the meaning of subversion

1.2.1.1-расм. Инглиз тилида "қўпорувчилик" семаси асосида даражаланувчи градуонимлар

Баъзан алоҳида ажратиладиган аналогик сўз (analogous words)лар алоҳида градуонимик қатор ҳосил қила олиши ҳам мумкин, яъни ишлатилиш кўламига кўра даражалари аниқланиб, қатор аъзолари аналогик бирликлардан иборат бўлади. Мисол тариқасида *abuse* сўзининг градуонимик қаторига кирмай қолган *hurt, injure, harm, damage, impair, mar, spoil* каби сўзлар зарар етказиш, булғаш, лат етказиш билан боғлиқ ҳолда аналогик маънодошликни намоён этгани ва шунда ҳам ўзаро даражаланиш

*Биз ўзаро тенг (идентик) маъноли сўзларни тенглик, дублетлик белгиси бўлган "**/**" орқали ажратишни маъқул топдик.

муносабатларини намоён этгани учун алоҳида градуонимик қаторга тизилиши мумкин:

hurt ~ injure ~ harm ~ damage ~ impair ~ mar/spoil

Синонимия ва градуонимия ўртасида нафақат фарқли жиҳатлар, балки умумий томонлар ҳам мавжуд. Шулардан бири: синонимик ва градуонимик қатор(лар)нинг очиқлиги (чекланмаганлиги). Яъни маънодошлик қаторлари, биринчидан, давр тақозоси, нутқ, жамият талаби асосида тўлдирилиб бориши мумкин. Иккинчидан, маънодошлик қаторлари нутқнинг аташ бирликлари, фразеологик иборалар, мустақил лексема семемаларининг турлари, ясама сўзлар, сўз бирикмалари, сўзларнинг нутқий кўчма маънолари билан боғланиб, ўз қаторини нутқий маънодошлик (контекстуал синонимия) воситалари билан кенгайтириб борилади [3]. Умумий томонлардан яна бири – ҳар иккала тур қаторлар битта бош лексема (доминанта) атрофида бирлашишидир. Бунда бош лексеманинг асосий хусусияти – бу лексема семемаси таркибидаги ифода семалари маънодошлик қаторида белгиланган, ойдинлаштирилган ифода семаларига нисбатан бефарқ (нейтрал) бўлади. Масалан, *бола – фарзанд – зурриёд* синонимик қаторида *бола* доминант сўз бўлса, *ниҳол – кўчат – дарахт* градуонимик қаторида *дарахт* бош сўз ҳисобланади.

Юқорида айтилганидек, тил ҳақидаги фанда синонимия қанчалик кенг ўрганилган бўлмасин, унинг ичидан градуонимияни ажратиш ва шу орқали тил бирликларини даражаланувчи бирликлар асосида тартиблаш тамойили ҳали ўз ечимини кутаётган масала саналади. Инглиз тилида лексик ва стилистик даражаланишни махсус тадқиқ қилган Ж.Жумабаеванинг фикрича, “сўзлар градуонимик луғатларининг яратилиши синонимлар ва градуонимларни ажратишга ёрдам беради” [2, 68]. Бугунги кунда тил фойдаланувчиларининг замонавий талабларини инобатга олган ҳолда, бу тамойил, албатта, нафақат босма, балки онлайн луғатларда ҳам акс этиши лозим, деган фикрдамиз.

Адабиётлар:

1. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Монография. – Тошкент, 1995.
2. Жумабаева Ж.Ш. Турли тизимли тилларда лексик ва стилистик градуонимия. – Т.: “Мумтоз сўз”, 2017.
3. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т., 1995.
4. Сайфуллаева Р.Р. Синонимия повествовательных предложений в современном узбекском языке. Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1982.
5. Сиддикова И.А. Синонимия как микросистема языка. Монография. – Ташкент, 2008.
6. Edmonds P & Hirst G. Near-synonymy and lexical choice//Computational Linguistics, 2002, MIT Press. № 28 – P. 105-144.
7. Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge University Press, 1986.
8. Murphy M.L. Semantic relations and lexicon//CUP. 2003. Synonymy. ELL. P.376-378.
9. Webster’s New Dictionary of Synonyms. – Massachusets, 1984.

ИНФОРМАЦИОННЫЕ КОМПЬЮТЕРНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКА

Эгамбердиева Гузал Мадияровна
кандидат филологических наук, профессор кафедры «Изучения языков» Университета общественной безопасности Республики Узбекистан
+998974342174
guzal.egamberdieva.76@mail.ru

Аннотация: В данной статье даются определения терминам «информационные технологии» и «компьютерные технологии», а также рассматривается эффективность использования компьютерной технологии в процессе преподавания

Ключевые слова: Информационные технологии, компьютерные технологии, современные средства обучения, этапы урока.

Образовательные технологии, которые используют специальные технические информационные средства в обучении (компьютеры, проекторы, аудио, кино, видео) называются информационными технологиями обучения.

Позже, когда компьютеры стали широко использоваться в образовании появился термин «новая информационная технология обучения». Но известный ученый Г.К. Селевко считает более удачным понятием для технологий обучения, использующих компьютер – термин «компьютерная технология» [1].

Компьютерные технологии обучения – это процессы подготовки и передачи информации учащимся, при осуществлении которых используется компьютер.

В последнее время термин «информационные технологии» используется как синоним термина «компьютерные технологии», потому что все информационные технологии тесно связаны с применением компьютера. Однако, «компьютерные технологии» являются частью «информационных технологий».

На современном этапе в нашей республике осуществляется компьютеризация как школьного, так и высшего образования.

«Необходимо выделить основные направления внедрения компьютерной техники в образовании:

– применение компьютера на занятиях в качестве средства обучения, улучшает процесс преподавания, увеличивает его качество и эффективность;

– использование компьютера в качестве средства автоматического контроля, коррекции знаний, проведения тестирования и т.п.;

– при помощи средств информационных технологий происходит обмен педагогическим и методическим опытом, учебной литературой;

– средства современных информационных технологий так же используются для организации интеллектуального досуга;

– на основе использования системы современных компьютерных технологий совершенствуется управление учебным заведением и учебным процессом» [1, с.137].

«К достоинствам компьютерной поддержки как одного из видов использования новых информационных технологий в обучении можно отнести следующие: возможность конструирования компьютерного материала для конкретного урока; возможность сочетания разных программных средств; а также побуждающий аспект активизации деятельности учащихся» [2].

Компьютер на урочных и внеурочных занятиях по словесности используется как: источник учебной информации, наглядное пособие с возможностями мультимедии и телекоммуникации; тренажер; средство диагностики и контроля; текстовой редактор. Так же уроки с использованием компьютера лучше всего чередовать с обычными занятиями. Компьютеры необходимо применять только там, где это целесообразно, они должны стать одним из компонентов учебного процесса. Например, информационные компьютерные технологии часто используются для составления планов учебных занятий, подготовки печатных материалов к урокам, подготовки презентаций и мультимедий, подготовки проектов.

Вышеуказанные возможности компьютера способствуют не только формированию личности ребенка, но и выявлению, развитию у него способностей, выработки умений и желания учиться, реализации усвоения в полном объеме знаний и умений.

На время урока, когда основное обучение и управление передается компьютеру, преподаватель получает возможность следить, контролировать самостоятельную работу студентов [3].

«Компьютерные средства обучения являются интерактивными, так как они имеют способностью «откликаться» на действия ученика и учителя, «вступать» с ними в диалог, что и является главной особенностью методики компьютерного обучения» [1, с.135].

В настоящее время многие преподаватели используют в своей методике компьютерные технологии, понимая большое влияние этой технологий на процесс образования. Однако, процесс информатизации образования не быстрый, он является постепенным и непрерывным.

Литература:

1. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. - М.: Народное образование, 1998. - 256 с

2. Федорова Г. Н.. Использование информационно-коммуникационных технологий в учебном процессе http://xn----btb1bbcge2a.xn--p1ai/blog/2017-02-21

3. Эгамбердиева, Г. М. (2020). Эффективность использования технологии полного усвоения знаний в воу. XV1 Виноградовские чтения, 200-203.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		3
Shirinova Nargiza	DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF MILITARY STUDENTS	5
Choriyev Tavakkal	TIL – MILLAT VA MA’NAVIYAT KO‘ZGUSI	7
Darvishova Gulchexra Kenjabayevna	NUTQNI TINGLAB TUSHUNISHNI O‘RGATISHDAGI AYRIM MUAMMOLAR	13
Erkayev Elmirza Temirovich, Jamoliddin Temirov,	MAXMUR SHE’RIYATINING INDIVIDUAL JIHATLARI	15
Ikanova Lazokat	DUNYO TAJRIBASIDA SUDLANGAN SHAHSLARGA VA MAXBUSLARGA INGLIZ TILINI O'QITISH	21
Islomxo'jayeva Sayyora Nozim qizi	ELEVATING LEXICAL COMPETENCY IN ENGLISH LANGUAGE PROFICIENCY AMONG CADETS THROUGH THE TOTAL PHYSICAL RESPONSE (TPR) METHOD AND ADAPTIVE TECHNOLOGIES	24
Karimov Muhammadrahim Salimjon o’g’li, Abduqodirov	AXBOROTLASHGAN DUNYODA MILLIY XAVFSIZLIKNI SAQLANIB QOLISHNING FALSAFIY MASALALARI	27

O‘tkirbek Axmadillo o‘g‘li		
Karimov Nasibjon Ikromidin o’g’li	DINIY TUSHUNCHA VA ATAMALARNING O‘ZBEK TILIDA IFODALANISHI	32
Latipov O.J.	ONA TILIMIZNING O’ZBEK SHE’RIYATIDA TARANNUM ETILISHI XUSUSIDA	36
Mengliyeva Sunbula	TIL VA UNING HAYOTIMIZDAGI O‘RNI	40
Mo’ydinov Hamidullo Raxmatillo o’g’li	TIL – MILLAT KO‘ZGUSI, UNI ASRAB-AVAYLASH ESA BIZ YOSHLARNING BURCHIMIZDIR	43
Musayeva Sh.I. Mamajonova Dilnavoz	TIL – MILLAT KO‘ZGUSI, MILLIY G‘URURI, MILLIY IFTIXORDIR	47
Namozova Dilnoza Berdimurotovna, Rashidova Munavvar Xaydarovna	EFFECTIVE TECHNIQUES FOR DEVELOPING PHONETIC COMPETENCE	51
Namozova Dilnoza Berdimurotovna, Rashidova Munavvar Xaydarovna	TEACHING PRONUNCIATION	57
Nortojiyev Mukhammad Anvar o’g’li	THE ROLE OF THE UZBEK LANGUAGE IN FOSTERING PATRIOTISM AND ACTIVE CITIZENSHIP AMONG YOUTH	63

Paxratdinov Kerimberdi Abdisaiitovich Paxratdinova Aruxan Kerimberdiyevna	QORAQALPOQ TILI FANINI O‘QITISHNING AHAMIYATI	70
Qo‘rg‘onboyev Shukrillo Maxmudillo o‘g‘li	YOSHLARDA MA‘NAVIY-MA‘RIFIY SALOHIYATNI YUKSALTRISH	75
Rahmonqulova D.M.	O‘ZBEK TILINING TAFAKKURI UMMONDIR	78
Tursunov Bexzodbek Baxodirovich	TIL – HAR BIR MILLAT MADANIYATINING O’ZAGIDIR	82
Tuychibaeva Sh, Mirzaeva Sh.	ANALYSIS OF WORK OF UZBEK TRANSLATORS	86
Xursandov A.S.	XORIJIY TILLARNI O‘QITISH JARAYONIDA INNOVATSION METODLARNI QO‘LLASH	92
Камилов Махмуджан Абдукахарович	ЦИФРОВАЯ ЛИНГВИСТИКА: РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ИЗУЧЕНИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЯЗЫКОВ	95
Камилов Махмуджан Абдукахарович	ВИРТУАЛЬНЫЕ СРЕДЫ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЯЗЫКИ: ИСПОЛЬЗОВАНИЕ VR/AR ДЛЯ СОХРАНЕНИЯ ЯЗЫКОВОГО НАСЛЕДИЯ	100
Туйчибаева Ш.Ш.	ИЗУЧЕНИЕ ПРЕДЛОЖНО-ПАДЕЖНОЙ СИСТЕМЫ В ПРАКТИЧЕСКОМ КУРСЕ РУССКОГО ЯЗЫКА	106

Туйчибаева Шахноза, Садикова Дилшода	РУССКИЙ ЯЗЫК В ГЛОБАЛЬНОМ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОМ ПРОСТРАНСТВЕ	111
Ширинова Нилуфар Джаббаровна	ГРАДУАЛ ИНПАРАЛЛЕЛИЗМ: ТУРЛИ ТИЗИМЛИ ТИЛЛАРДА ЛИСОНИЙ МАЪНОЛАРНИ ФАРҚЛАШ УСУЛИ СИФАТИДА	116
Ширинова Нилуфар Джаббаровна	ГРАДУОНИМИЯ ВА СИНОНИМИЯ	126
Эгамбердиева Гузал Мадияровна	ИНФОРМАЦИОННЫЕ КОМПЬЮТЕРНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКА	131